

O‘ZBYeKISTON RYeSPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TAHLIM
VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVYeRSITYeTI

K.X. Rahimova

BOLALARNI MAHNAVIY - AXLOQIY TARBIYaLASH UCHUN O‘YINLAR.

Farg‘ona - 2006

Ilmiy muharrir: M.Otajonov p.f.n dotsent

Taqrizchilar: M.Abdullajonova p.f.n dotsent

B.Latipov p.f.n. dotsent

Ushbu qo'llanma bolalar bilan olib boriladigan tahlil-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishda o'qituvchi va tarbiyachilarga yordam sifatida hamda otalarning psixologik bilimdonligini oshirish maqsadida tayyorlandi. Bola shaxsini shakllantirish o'ta murakkab va alohida yondashishni talab qiladigan jarayon. Shuning uchun ham tarbiya jarayonida ikkinchi darajali omillar bo'lmaydi. Qo'llanmada bolalarning har tomonlama etuk bo'lib shakllanishiga tahsir etuvchi o'yinlar haqida ma'lumot berilgan. Unda zamonaviy ilmiy nazariyalardan keng foydalanilgan.

K.Rahimova

Bolalarni ma'naviy - axloqiy tarbiyalash uchun o'yinlar.

Farg'ona - 2006

Kirish.

Inson shaxsini, uning yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat-ehtibor, mustaqil vatanimizga mehr - muhabbat ruhida tarbiyalash talablari oldimizga muhim vazifalarni qo'ymoqda. Sog'lom ruhiyat egasi bo'lgan yoshlar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, bu boradagi ishlarning samarali yo'llarini izlab topishni esa maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlash

zarur. Demak, bolani ilk yoshligidanoq, milliy anhanalarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashni aholining turmush va tafakkur tarzi bilan, milliy va madaniy qadriyatlarimiz, xalq anhanalari, rasm-rusumlari va urf-odatlar bilan bog'liq tarzda olib borish lozim.

Bolalar o'yinlari ularning shaxsiy taraqqiyotida, ularda ijobiy xulq shakllarini tarbiyalashda nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Tabiatning to'la huquqli farzandlari sifatida insonni hayvonot olami bilan bog'lab turgan zanjirlardan biri instinktlar bo'lsa, ikkinchisi o'yin faoliyati hisoblanadi. O'yin insonning biologik yoshi qadarli qadimiyydir. Hayvonot olamini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lgan har bir odam instinktiv xulq faqat o'yin orqaligina hayvonlarda amaliy harakatlarga ko'cha olishi mumkinligiga ishonch hosil qiladi. Insonga xos bo'lgan o'yinlar esa uning ijtimoiylashuvi, murakkab shaxslararo munosabatlari xususiyatlaridan kelib chiqib mohiyati jihatidan yanada yuqoriroq psixologik funktsiyalarni bajaradi.

O'yin faoliyati, uning ahamiyati haqida juda ko'p yozilgan alohida monografiyalar va dissertatsiyalardan tortib maqolalargacha ularni ko'plab keltirish mumkin. O'zimiz ham muqaddam ehlon qilingan ishlarimizda bu muammoga bir necha bor to'xtalganmiz. Ushbu qo'llanma uchun esa sifat jihatidan yangi, baholash nuqtai-nazaridan to'la ijobiy yoki salbiy deb bo'lmaydigan, bolalarning ayrim psixologik xususiyatlarini shakllantirish yoki aksincha ularni bartaraf qilishda o'yin faoliyatidan foydalanish mavzusini tanladik.

Bolalarga xos bo'lgan ana shu xususiyatlardan biri bolalar rashki va yana biri bolalardagi ruhiy tushkunlik hisoblanadi. Bular kuchli emotsional tahsir qudratiga ega bo'lib, bolalar psixikasi uchun eng katta noqulaylik tug'diradigan va ruhiy jaroxat etkazadigan hodisalar sanaladi.

Ko'plab ota-onalar bolalari bilan bog'liq bolalik rashki muammosiga duch kelishadi. Psixolog mutaxassislar bu muammo bo'yicha turli maslahatlar berishadi. Lekin bolalar rashki bilan kurashish oson ish emas, chunki bolalarda rashk o'z-o'zini saqlash, birinchilik uchun, jismoniy va emotsional rohatbaxshlik va himoya manbai bo'lgan kattalarning g'amxo'rliqi uchun kurashish kabi sof instinktiv chuqur ong isti strukturalari bilan bog'liq. Shu sababdan ham shunchaki rashkning o'zi bilan kurashish butunlay befoyda, chunki bu kurashish ongsiz qarshilikni kuchaytirsa-kuchaytiradi-ki, aslo susaytirmaydi. Shuning uchun birinchidan, bolaning ong ostini tinchlantirish, ikkinchi farzand ota-onaning katta farzandga nisbatan muhabbatiga, atrofdagilarning diqqat-ehtiboriga halaqit bermasligiga uni ishontirish, ikkinchidan bolaning ong ostiga (keyinchalik uning ongiga ham) yangi sharoitlarda o'z xavfsizligi va shaxsiy qadr-qimmatini hissini amalga oshirish uchun xulqning yangi modellarini berish kerak bo'ladi. Har ikkala maqsadga erishish uchun qo'llanilgan har qanday pand-nasihat, yana ham yomoni jismoniy jazo vaziyatni yanada og'irlashtiradi, xolos. Bu maqsadlarga erishish uchun eng qulay va bola psixikasi uchun eng kam jarohat etkazadigan usul birgalikdagi faoliyatning qadri va ustunligi elementlarini o'zida mujassamlashtirgan o'yinlar hisoblanadi. Bunday o'yinlarga turli oilalarga mansub bolalar o'rtasida bir-biriga yordam elementlari shart bo'lgan va o'zaro yordamsiz shtraf ochkolari belgilanadigan rol o'yinlar qo'l keladi. Roldagi xulq asta-sekin bolaning ong ostida shakllana boradi va bu shakllangan xatti-harakatlar bolaning amaliy xulqida

mustahkamlanadi. Maxsus tayyorgarliksiz ham ota-ona o'z katta farzandini kichik farzandi bilan teng darajada sevishini, uning o'rni, hurmati alohida ahamiyatga ega ekanligini munosabatlaridan ko'rsatib turishi kerak bo'ladi. Lekin bu munosabatni yana so'zda ham qayd etish psixologik jihatdan maqsadga muvofiq emas.

Rashkka o'xshab istisnosiz hamma bolalarga xos bo'lgan yana bir xususiyat bu ruhiy tushkunlik xususiyatidir. «Men buni uddalay olmayapman!» - deb qo'lidagi narsani otib yuborish hollarini ko'p kuzatish mumkin. YOsh bola shaxmatda, shashkada yutqazib qo'yib, uzoq vaqt o'zini tutib turadi, lekin baribir alamini yig'idan oladi. Bolalar har qanday muvaffaqiyatsizlikka o'ta tahsirchan bo'lishadi va har doim ham o'zlari uchun qiyin bo'lgan bunday holatdan chiqib ketish strategiyasini tanlay olishmaydi. Bolalar psixikasi uchun esa qiyinchilikka duch kelganda ruhiy tushkunlikka tushmaslikni o'rgatish juda ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham bolalarga muvaffaqiyatsizlikni ham o'z qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bahona sifatida anglatish kerak deb o'rgatishadi, ularning kelajak hayotida esa bu malaka juda ham asqotadi. Lekin bunga qanday erishish mumkin. Ona sizga bu ishda turli o'yinlar, sizning bolangiz faoliyati, uning mahsuliga munosabatingiz yordamga kelishi mumkin. O'yinlarni shunday tanlangki, unda bolaning muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz harakati bir-birini almashtirib tursin, bola muvaffaqiyatsizlik ham oddiy hol ekanligiga ko'niksin. Bolangizni o'z muvaffaqiyatsizligida tura olishga o'rgating, buning uchun shu omadsiz harakatni o'zingiz bajarib ko'rsatishingiz ham mumkin va sizning o'z xatoingiz, «no'noqligingizda» tura olishingiz bola uchun ong osti ustanovkasi bo'lib xizmat qiladi. Bolangiz mehnat mahsuli: uning chizgan rasmi, yasagan qo'g'irchog'ini baholaganingizda munosabatingiz faqat maqtovdan ham, yoki aksincha tanqiddan ham iborat bo'lmasin. Eng mahquli maqtamang va tanqid ham qilmang, befarq baho bering. Bu bilan siz bolada maqtovga o'chlikning yo'lini kesasiz. Shunda omadsizlik ham bola ruhiyatiga og'ir botmaydigan bo'ladi.

Qisqasi bolangiz ruhiy murg'aklik davridan o'tgunga qadar, yahni 5-6 yoshga to'lguncha unga imkon boricha yordam berishga harakat qiling, o'zingizning samimiy, mehribon munosabatingizni ko'rsating, bu bilan siz uni turli ruhiy jarohatdan saqlagan bo'lasiz. O'smirlik yoshigacha esa uni ko'proq psixologik rolli o'yinlar bilan band qilingki, o'yin faoliyatida bola kattalar xulqi xususiyatlarini o'zlashtiradi, o'zaro munosabat va mustaqil faoliyat malaklarini egallaydi.

Zero, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tahkidlaganlaridek, maktabgacha yosh davri bola mahnaviy-ruhiy rivojida katta ahamiyatga ega bo'lgan davrdir. «Vaholanki, odam umri mobaynida to'playdigan axborotlarning yarmini maktabgacha tarbiya davrida oladi. Unga kerakli shart - sharoitni shu davrda yaratib bermasak, keyin foydasi kam bo'ladi. Joylarda, qishloq va tumanlarda farzandlarimizga tarbiya beradigan, yahni ularning ongini o'stiradigan, fikran ulg'aytiradigan maktabgacha tarbiya muassasalari tizimini takomillashtirishga alohida ehtibor qaratishimiz zarur».

Mahlumki, maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy, etakchi faoliyati o'yindir. Shu faoliyat vositasida u tashqi ijtimoiy olamni biladi, uning dunyoqarashi va mahnaviyatiga aloqador bilimlar zahirasi to'planadi. *Ijtimoiy tasavvurlar* bola ongida shunday bilim, tushuncha, g'oya va tasavvurlar majmuiki, ular bevosita bolani o'rab turgan ijtimoiy obyektlar, hodisalar, qadriyatlar mohiyatidan kelib chiqadi va bunda o'yin faoliyati etakchi rol o'ynaydi.

Mahnaviy tasavvurlar esa shaxs ijtimoiy tasavvurlarining tarkibiy bo'lagidir. Yahni, *mahnaviy tasavvurlar* - shaxsdagi shunday tasavvurlar tizimiki, uning mazmuni insonning jamiyatdagi o'zaro munosabatlari jarayonida namoyon bo'ladigan ijtimoiy xulq normalariga mos harakatlar haqidagi tushuncha, bilim va hissiyotlari tashkil etadi. Bola ongida o'zaro munosabatlar, xususan, o'yin faoliyati jarayonida shakllanadigan ijobiy va mahnoli xulq to'g'risidagi tasavvurlari uning jamiyatda ijobiy, to'g'ri, adekvat xulq shakllarini namoyon qilish va mustaqil fikrlashining real asosi, individual ongni ijtimoiy ong bilan bog'lovchi ko'pri, subhektiv reallikni obhektiv reallik bilan bog'lovchi psixologik mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Shu bois ham bolaning mahnaviy tasavvurlarini shakllantirish turli xildagi rol o'yinlarning mazmuniga mos tarzda kechadi.

Mahlumki, ijtimoiy xulqning maqsadga muvofiq barqaror malakalarini shakllantirish uchun ko'p marta qaytariladigan mashqlardan tashqari, shaxs tomonidan bu malakalarni anglash va ichki ruhiy qabul qilish ham katta ahamiyatga ega. Bolalar psixologiyasidagi emotsionallik va hissiyotning ustunligini ehtiborga olsak, aynan rol o'yinlar ular tasavvurlari doirasini kengaytirish, ularda mustahkam, maqsadga muvofiq malakalarni hamda xulq shakllarini ijtimoiy ustanovkalar shaklida hosil qilish vazifasini bajaradi.

Ushbu qo'llanma mustaqil yurtimizning kelajagi hisoblangan bolalarning psixikasida shakllanishi zarur bo'lgan yangicha qarashlarga o'rgatish yo'llarini topishga yordam beradi, yuksak madaniyatli va mahnaviy etuk xalqqa munosib vorislarni tarbiyalashga muayyan hissa qo'shadi, degan umiddamiz.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING BOLA TARBIYASI HAQIDAGI QARASHLARI.

Bola tarbiyasini maqsadga muvofiq amalga oshirishda o'tmishning mahnaviy merosidan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu mahnoda Prezidentimiz I.A Karimovning Sharq tsivilizatsiyasi yutuqlarini, o'tmish ajdodlarimizning madaniy va mahnaviy boyligini chuqur va har tomonlama o'rganishimiz darkor, deb aytgan so'zlari muhimdir.

Haqiqatan ham buyuk ajdodlarimiz bir necha asrlar davomida Sharq tsivilizatsiyasining yaratuvchilaridan bo'lib kelganlar. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al Hakim Termiziy, Alisher Navoiy, Mahmud Qoshg'ariy, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Xo'ja Bahoviddin Naqshbandiy singari mutaffakkirlarning g'oyalarida bola shaxsining kamolotida jismoniy va aqliy faoliyatning roliga katta ahamiyat berilgan, ularning tahlilotida bolalar ijodiyoti folg'klor o'yinlariga taalluqli ijtimoiy holatni aks ettiruvchi mahlumotlar behisob.

Sharqdagi kalom ilmining asoschilaridan biri **Imom Abu Mansur Moturidiy Samarqandiy** (870-946) hazratlari mahnaviyat olamida alohida o'rin egallaydi. Darhaqiqat, inson shaxsi va uning mavqei masalasi, uni turli ijtimoiy-siyosiy, hatto diniy tazyiqlardan himoya qiluvchi Al-Moturidiyning murosaviy muvozanat kontseptsiyasini, islomni yangilash jarayonlaridagi ijobiy jihatlar yig'indisigina emas, balki Movarounnahrdagi real ijtimoiy-siyosiy muhit, xalq turmush tarzi, mentaliteti,

ijtimoiy-tarixiy tajribasini umumlashtiruvchi insoniy yondashuvlar sintezi, deb baholash maqsadga muvofiqdir. Al-Moturidiy jamoa va jamiyat munosabatlarining voqelik mohiyatini ramz - holatlarda talqin etishga intiladi.

Muallif bola ruhiyatida kuchli ehtiqod va tafakkurni shakllantirish uchun majburlash vositasi bilan emas, balki uning qalbini, ruhiyatini kashf qilish orqali muqaddas ehtiqodni unda yuzaga keltirish g'oyasini ilgari surdi. Uningcha, odam bolasi zulmpesha bo'lib tug'ilmaydi, noto'g'ri shaxslararo munosabatlar, muhit uni zulmpeshaga aylantirishi mumkin. Shunday ekan, qo'lingizdan kelsa odam bolasiga to'g'ri yo'lni ko'rsating, deydi alloma. U bu bilan bola - voyaga etgan inson munosabati uyg'unligiga ishora qiladi. Ijtimoiy attityud, stereotiplar, attraktsiya, imitatsiya ijtimoiy tahsir vositasi, negizi ekanligini Moturidiy tahkidlaydi. Yuqoridagi mulohazalar buyuk allomaning mahnaviyatga va inson kamolotiga qo'shgan hissasi yuksakligidan dalolat bo'lib, biz uning barcha asarlarini ana shu nuqtai nazardan ham qayta - qayta o'rganishimiz lozim.

Sharqning yana bir allomasi **Abu Nasr Forobiyning** (870-950) inson kamoloti, uning tahlim-tarbiyasi, baxti, umuman axloqi, dinga nisbatan munosabati haqidagi qarashlari ham umumfalsafiy umumlashmalar va talqinlardan iborat o'git bo'lib, u bu bilan Sharqona tarbiya nazariyasini sezilarli darajada mahlumotlar bilan boyitdi. Ushbu masala uning «Baxtga erishuv yo'lini ko'rsatuvchi kitob», «Fozil odamlar shahri» singari asarlarida ko'tarilgan. Uning mulohazasicha, insonga uni go'zal amollar qilish uchun yo'naltiradigan odat mahsuli bo'lmish etuk xulq lozim. Xulqning yaxshiligi xatti-harakatlarda mehyor qay darajada saqlangani bilan belgilanadi. «Odob shunday narsaki, u orqali inson muayyan xulqqa ega bo'ladi yoki bir xulqdan o'ziga duch kelgan boshqa bir xulqqa o'tadi, yahni u qisqa yoki davomli vaqt jarayonida odob tufayli biror faoliyatni ko'p marta takrorlaydi».

Odobni mutafakkir badavlatning davlatini bezaydigan va kambag'alning kambag'alligini o'g'iraydigan axloqiy ijtimoiy hodisa deb tahriflaydi. Muallif «Fususulmadani» risolasida yozishicha, inson hech qachon noqobil bo'lib tug'ilmaydi, shuningdek, hech qachon biror hunar egasi bo'lib dunyoga kelmaydi. Biroq har bir kishida biron bir fazilatlikka yoki qabihlikka moyil qobiliyat bo'ladi, oqibatda yoshligidan u yoki bu sohaga moyillik ko'rsatadi va unga intiladi. Bizningcha oilaviy munosabatlarda, o'zaro tahsir o'tkazish jarayonida uning ahzolari o'rtasidagi samimiy tuyg'ular, mehr - oqibatlar, ota-onaning o'z farzandlari uchun birlamchi ustoz, qadriyat manbai, yo'l ko'rsatuvchi ekanligi mavqe va rol tahsirchanligi yuzasidan ijtimoiy tasavvurlar shakllanishiga va ularni idrok qilishga tayyorgarlik darajasining ortishiga yordam beradi.

Alloma **Abu Rayhon Beruniy** (973-1048) o'zining «Minerologiya», «Geodeziya», «Hindiston», «O'tgan avlodlar obidalarini», «Ruhiyat va tahlim-tarbiya haqida» nomli asarlarida inson shaxsining xususiyatlari, uning kamoloti, idroki, sabr - toqat, kamtarlik kabi irodaviy va xarakterologik sifatlariga ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan turib yondashadi.

Axloq - odob egasi bo'lgan inson eng avvalo o'z xulq - atvori, muomala maromi, turmush tarzi, oilaviy muhit barqarorligi haqidagi fikrlari bilan oila etikasi va psixologiyasi namunasidir. Inson o'z ehtiroslariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir, o'z ruhi va tanasini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagudek narsalarga

aylantirishga, uni mahnaviy shifokorlik bilan davolashga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir.

Hazrat **Abu Ali Ibn Sinoning** (980-1037) pedagogik va psixologik qarashlari ijtimoiy psixologiyaga asoslangan bo'lib, u bola kamolotiga umuminsoniy tamoyilning qo'llanilishini yoqlaydi va tarbiyachi, ota-onalarga uni qattiq tana jazosidan farqli o'laroq, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash mahqulligini uqtirgan. Ibn Sino o'zining «Tadbiri manzil» asarining katta bir bobini oila va oilaviy masalalarga bag'ishlaganligi tasodifiy emas. Ibn Sino oila boshlig'i oldiga katta talablar qo'yadi, farzandlarni bir-biriga nisbatan mehr-oqibat tuyg'usi orqali tarbiyalash, iliq ruhiy muhitni yaratishni uqtiradi. Oiladagi noxush tarbiya faqat shu oilagagina salbiy tahsir qilib qolmasdan, balki boshqa oilalarga ham xuddi shunday tahsir qilishini oqilona tarbiya oila baxtining muhim asosi ekanligini tahkidlaydi. Ibn Sino bola yomon xarakter hislatning egallashini kutmasdan turib, uni ijobiy fazilatlar bilan tanishtirib, bolaga yaxshi odobni singdirish kerak, - deb yozadi. Uning tahkidlashicha, sharoit (muhit) qanday bo'lishidan qathiy nazar, farzand kamoloti ota-onalarning asosiy vazifasidir, ular davlat boshlig'imi yoki jamiyatning oddiy bir ahzosimi, bari bir tarbiya masalasida ular uchun bir xil talab qo'yilishi kerak, chunki bu ijtimoiy ehtiyojdir.

Ibn Sino maktabgacha davr haqida shunday yozadi: «Bolaning istagan narsasini darrov muhayyo qiling. U yoqtirgan narsani berib, u yoqtirmagan narsani uzoqlashtirishga tayyor turing. Agar yomon xulq odat tusiga kirib qolsa, unda yomon mijozni shakllantiradi, yaxshi xulq yaxshi mijozni shakllantiradi. Yomon muomala bola organizmini quruqlikka moyil qiladi, natijada bolada affekt, apatiya hosil qiladi. Yaxshi muomala bilan ikki tomonlama yutasiz, birinchidan, bolangiz sog'lom bo'ladi, ikkinchidan, bolangiz samimiy bo'ladi».

Ibn Sino oilani ijtimoiy institut, shaxslararo munosabatlar manbai, o'zaro ta'sir o'tkazishning qulay ijtimoiy muhiti, milliy an'analar ta'sirchanligi, taqlid, yuqish fenomenlari negizi ekanligi to'g'risidagi mulohazalari to hozirgi davrgacha o'z kuchini yo'qotgani yo'q.

XI asrning buyuk mutafakkiri va shoiri **Yusuf Xos Hojib** o'zining «Qutadg'u bilig» - «Saodatga boshlovchi bilim» - kitobida va undan keyingi qator asarlarida o'zining etika va oilaviy hayotga oid qarashlarini bayon etadi. U oiladagi odob-axloq normalariga katta qiziqish bilan qaradi: kattalarni hurmat qilish kichiklarning burchi ekanligini, o'z navbatida, kattalar ham kichiklarni ehzozlashi hamma uchun burch, insoniy qadr-qimmat belgisi, deb bildi. Bu shaxsning ijtimoiy turmushdagi mavqei va bajarishi lozim bo'lgan roli to'g'risida fikrlar majmuasidir.

U inson faqat jamiyatdagina kamolotga etishi mumkin, muloqot va ijtimoiy - foydali mehnat uni rivojlanishining va yashashining mezonidir, deb hisoblaydi: «Odam kim bo'lishidan qathiy nazar (shohmi, gadomi) avvalo insoniy bo'lishi kerak, chunki dunyoda o'lmas bo'lib, faqat insoniylik qoladi. Yaxshi axloqiy fazilatlarga ega kishi - har qanday qimmatbaho durlardan ham qimmatlidir».

Shoirning fikricha, farzand ko'rish va unga tarbiya berish har bir inson uchun buyuk baxtdir, ularsiz hayotning mahnosi yo'q. Lekin bu narsa ota - onaga juda katta mahsuliyat yuklaydiki, uning uddasidan chiqmoq, har bir ota-ona uchun ham farz, ham qarzdur. U oilaviy muhitni shaxs axloqiy taraqqiyotining asosi, deb hisoblagan: «Agar

bolaning xulqi yomon bo'lsa, bunda bolaning aybi yo'q, hamma ayb - otasida». Ijtimoiy attityud tahsir tufayli va unga asoslanib, shaxs jamiyat qonunlari, turmush mezonlari, ommaviy xulq - atvor namunalari orqali ijtimoiylashib boradi.

O'rta asr axloqshunosligida Raylik mutafakkir **Abu Bakr ar-Roziy** (865-925) tahlimoti o'ziga xos o'rin egallaydi. U insondagi xushxulqlikni shakllantirish va badxulqlikni tuzatish yo'llari hamda usullari haqida fikr yuritadi. Uning tahlimoti «Lazzat», «Falsafiy hayot tarzi», «Ruhiy tabobat», «Baxt va farovonlik belgilari» singari kitoblarida ijtimoiy tasavvur, ikkiyoqlama o'zaro tahsir o'tkazish xislatlari mohiyatini bayon qiladi.

Ar-Roziy insonni ijtimoiy faolikka chaqiradi, uni jamiyatda o'z o'rnini topishga, umumiyat ishiga naf keltirishga dahvat etadi. Inson faqat insoniy jamiyatdagina axloqiy yuksaklikka, baxt va farovonlikka erishadi, deb hisoblaydi.

Muallif «Ruhiy tabobat» kitobining XVI bobida ehtiqodiy fanatizmning zarari haqida mulohaza yuritadi. Ideal ko'rinishli sof diniy ehtiqod hayotda bo'lishi mumkin emasligini tahkidlar ekan, taqvodorlikni faqat nisbiy tarzda tushunishga chaqiradi. Uningcha, fanatizmga oid turli-tuman diniy oqimlar diniy ehtiqodni murakkablashtirish, noinsoniylashtirish oqibatida kelib chiqadi. Ar-Roziyning bunday fikrlari ijtimoiy voqelik va uning ixtiyorsiz ravishda inson ruhiyatiga ongsizlik holati tarzida kirib kelishini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega.

Kaykovus Unsurulmayoni O'rta Osiyo va umuman Sharq falsafasi va pedagogikasiga munosib hissa qo'shgan olimdir. Qobusnomadagi asosiy g'oya - yoshlarni ota-onalarni hurmat qilishga, ularni ehzozlashga chaqirishdir. Muallifning bu boradagi fikrlari pandnomaning «Ota-ona haqqini bilmoq zikrida» bobida bayon etilgan. Kaykovus ota-ona o'z farzandi uchun, hatto o'limga ham tayyor ekanligini tahkidlash bilan birga ularni aslo ranjitmasliklari, aksincha, shirinsuhanlik bilan munosabatga kirishishni uqtirib: «har bir farzandki, oqil va dono bo'lsa, ota-ona mehr-muhabbatini ado etmakdin bosh tortmagay», - deydi hamda bu fazilat aqlli va dono farzandga xos narsa ekanligini qayd etadi. «Nima eksang, shuni o'rasan», degan o'zbek va tojik xalqlarida keng tarqalgan maqolni ishlatib, u oilada bola tarbiyasining qo'yilishi ana shu muhim maqol asosida ko'rilsa, maqsadga muvofiq ish tutilgan bo'ladi, deb hisoblaydi.

Turmush madaniyati, odob-axloq, shaxs kamoloti borasidagi o'ziga xos betakror fikrlar sohibi buyuk bobokalonimiz **Alisher Navoiyning** o'rni va ahamiyati nafaqat Sharq xalqlari, balki jahon ilg'or taraqqiyparvar olimlari uchun bebahodir. Uning «Mahbub-ul-qulub» asari buyuk allomaning tahlim-tarbiya, axloq-odob, maishiy - turmush muammolariga bag'ishlangan yirik risoladir. Navoiy bu asarida farzandning ota-onasi, ota-onaning esa farzandi oldidagi burchlari va oilaviy munosabatlar mohiyati yuzasidan fikr yuritadi. Kattalarning o'zaro hamda ularning bolalari bilan munosabatlari ibrat-namuna, mezon sifatida ijobiy fazilatlar shakllanishiga manba va asos bo'lishi tahlil qilinadi.

Buyuk yurtdoshlarimizning ilg'or g'oyalarini davom ettirgan Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Abdulla Avloniy, Avaz O'tar kabilarning didaktik asarlarida insonning barkamolligi muammosi, bola shaxsini takomillashtirishda milliylik va madaniy-ijtimoiy muhitning roli alohida o'rin egallaydi.

Buyuk mutaffakkir **A.Avloniyning** ijtimoiy va pedagogik asarlarida axloqiy qarashlar mujassamlashgan bo'lib, uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar, shaxslararo munosabat g'oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Bolaning shaxs sifatlariga to'xtalib, unda oilaning rolini tahkidlar ekan, «Qush uyasida ko'rganini qiladur», deydi. «Inson javhari qobildir. Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lub chiqar...». Olim oilaning bola tarbiyasidagi rolini birlamchi ekanligini tahkidlab: «...tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq lozim», deydi.

Shunday qilib, Sharq azaldan mahnaviyat va axloqiy tarbiya yuzasidan ilmiy-amaliy fikrlar yaratgan allomalar yurti bo'lib kelgan va buni G'arb ham tan olgan. Yuqoridagi qisqacha tahlil mukammal va to'la bo'lmasa-da, lekin bizga oilaviy anhanalar misolida xalqimiz merosining boyligini va bu boylik qadriyat, ijtimoiy fenomen sifatida asrlar osha mahnaviyatimizda muhrlanib kelayotganligini ko'rsatadi. Oila ijtimoiy institut va undagi o'zaro munosabatlar, kattalarning o'zaro hamda farzandlarning bir-biri bilan munosabatlari maktabgacha yoshdagi bolalarda ezgulik, samimiyat, insonparavarlik his-tuyg'ulari uchun asos ekanligi to'g'risida Sharq mutafakkirlarining tahlilotlariga tayanib xulosa chiqarishimiz mumkin. Lekin jamiyat taraqqiyotiga mos tarzda ilm-fan ham rivojlanib bordi va oilaviy munosabatlarning mohiyati bolaning milliy mahnaviyati, tafakkuri va tasavvurlariga tahsiri psixologiya va pedagogika fanlarida ilmiy metodlar yordamida o'rganila boshlandi.

ROLLI O'YINLARNING AYRIM XUSUSIYATLARI.

Rolli o'yinda bolalar o'zlarining kattalar bilan birgalikdagi hayotga intilishlarini qondiradilar va o'ziga xos o'yin shaklida kattalarning o'zaro munosabatlari va mehnat faoliyatlarini qayta tiklaydilar, hamda odamlarning ijtimoiy vazifalarini va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qoidalarini tushuna boshlaydilar.

O'yinda o'zaro munosabatlarning ikkita turi mavjud - o'yin munosabatlari va real munosabatlar. o'yin munosabatlari syujet va rol bo'yicha munosabatlarni aks ettiradi. Real munosabatlar bolalarning sherik, o'rtoq, umumiy ishni bajaruvchilar sifatidagi o'zaro munosabatlaridir. O'yin faoliyatida bolalar muloqotining o'ziga xos shakllari paydo bo'ladi. O'yin boladan tashabbuskorlik, dilkashlik, o'z xatti - harakatlarini keng doirada moslashtirish kabi sifatlarni talab qiladi. Bu sifatlarni muloqot o'rnatish va uni qo'llab turishga xizmat qiladi.

O'yin faoliyatida rolni bajarish jarayonidagi roldagi mavjud xulq namunasi bola uchun o'z xulqini solishtiradigan va nazorat qiladigan etalon vazifasini bajaradi.

U yoki bu xatti - harakatlariga kattalar tomonidan beriladigan bahoga yo'nalish olayotgan bola, mahnaviy taraqqiyotning birinchi bosqichida turadi. Bu erda bolada nima qilib bo'lsa ham kattalarning mahqullashini olish uchun xulqning namoyishkorona shakllari paydo bo'lishi mumkin. Kattalar boladagi o'z xatti - harakatiga beriladigan ijobiy bahoga yo'nalishni qayta qurish uchun hamma ishni qilishlari lozim. Bola bahodan emas mahnaviy xatti - harakatning o'zidan qoniqish hosil qilishga erishish kerak.

Bola shaxsining ma'naviy taraqqiyoti quyidagi tarkibiy qismlar bilan belgilanadi: normalarni bilish, xulq odatlari, axloqiy normalarga emotsional munosabat va bolaning ichki pozitsiyasi.

Ijtimoiy mavjudot sifatida bola uchun xulq normalarini bilish birinchi darajali ahamiyatga egadir. Ilk bolalik va maktabgacha yosh davrda bola kattalar bilan muloqot va o'yin vositasida ijtimoiy xulq normalarini o'zlashtiradi. Normalarni o'zlashtirish birinchidan, bolaning asta - sekin ularning ahamiyatini anglab tushuna boshlaganligini bildirsa, ikkinchidan, bolada boshqa odamlar bilan muloqot tajribasida xulq odatlari shakllanayotganligini bildiradi. Agar bola odatiy xulqni buzsa, bu narsa unda noqulaylik xissini tug'diradi. Normalarni o'zlashtirish uchinchidan, shuni anglatadiki, bolada bu normalarga nisbatan o'ziga xos emotsional munosabat shakllanadi.

Mahnaviy normalarga va ularni bajarishga emotsional va mulohazali munosabat bolada kattalar bilan muloqot orqali rivojlanadi.

Katta yoshdagi odam o'z munosabati bilan bolaning xatti - harakati xulqining alohida tipini belgilaydi, u bolaga u yoki bu mahnaviy xatti - harakatning zarurligi va maqsadga muvofiqligini aniq anglashga yordam beradi. Aynan bolaning katta yoshdagilarga emotsional tobeligi doirasida unda tan olinishiga intilish rivojlanadi.

Tan olinishiga intilishi shaxsning eng muhim ehtiyojlaridan sanaladi. Bu ehtiyoj jamiyatning ijtimoiy talablariga javob beradigan o'z muvaffaqiyatlari uchun yuqori baho olishga intilishiga asoslanadi.

Maktabgacha yosh davrda xulq motivlari va faoliyatning yangi ijtimoiy mazmun bilan boyishi amalga oshadi. Bu davrda ehtiyoj sohasining qayta qurilishi va tan olinishiga ehtiyojning namoyon bo'lish motivatsiyasida sifat jihatdan o'zgarish yuz beradi. Bolalar o'z intilishlarini yashira boshlaydilar, ochiq maqtanchoqlik kamdan - kam kuzatiladi. Bolalardagi qondirilmagan tan olinishga ehtiyoj, ularda xulqning salbiy shakllarini maqtanchoqlik va yolg'onchilikni rivojlantirishi mumkin.

Bolalar o'yinlarida ijtimoiy rol o'zlashtiriladi, masalan: «Mehmon - mehmon» o'yinida mehmon va mezbон harakatlariga xos bo'lgan asosiy qirralar o'zlashtirilib, taqlid asosida ko'nikmalar hosil qilinib, muomalaning mukammal va chiroyli jihatlarini, davr madaniyatiga xos xulq-atvor shakllarini o'rganadilar. Odamlar o'rtasidagi munosabat normalari o'yin vositasida bola mahnaviyati shakllanishining manbalaridan biriga aylanadi, chunki, bola o'yinda go'yoki inson faoliyati oliy shakllari, odamlar o'rtasidagi munosabatlarning rivojlangan dunyosiga o'tadi.

Bu munosabatlarning har bir oila muhitida qay yo'sinda yo'lga qo'yilganligi, oilaviy anhanalar xarakteri bolada mahnaviy qadriyatlarni o'zlashtirish, kattalar bilan bolalar, mehmonlar bilan mezbонlar, mehmon kelgan chog'dagi mezbон bilan uning bolalari o'rtasidagi munosabatlarning yo'nalishi va tabiatidan kelib chiqadi. Mehmon kelgan chog'da bolaning mehmonlarni ijtimoiy jihatdan idrok qilishi, o'sha paytda o'z ota-onasini idrok qilishi, mehmon va mezbонlarning bolalarga munosabati o'ta muhim psixologik omillar bo'lib, ular bolalardagi ijtimoiy tasavvurlarning xarakterini, mehmonnavozlikka nisbatan bola ongida shakllanadigan baholar tizimini va ayni paytdagi ijtimoiy xulq normalarini belgilaydi.

O'zbeklarda mehmon kutish, mehmonga borish anhanalarining doimiyliigi, o'ziga xos voqea sifatida har bir shaxs tomonidan idrok etilishi bu jarayonning shaxsdagi boshqa ko'plab shaxsiy sifatlarga bevosita tahsirini va boshqacha ijtimoiy

vaziyatlarda o'zini qanday tutishiga aloqador ekanligini bildiradi. Shuning uchun ham ota-ona psixologik bilimdonlikka, ijtimoiy vaziyatlarda o'zini mahnaviy qadriyatlar doirasida tutish madaniyatiga ega bo'lishi kerak.

Mehmondorchilikning tarbiya vositasi sifatidagi dastlabki qoidalaridan biri mehmon va mezbonning yuksak insoniy odob qoidalariga amal qilishlaridir. Bolalar ota-onalarinig ko'zlari oldida kishilarga ko'rsatgan g'amxo'rliги va ehtiromlaridan ibrat olib, ularga o'xshab ish tutishga odatlana boradilar. Ota-ona kattalarni hurmatlash va siylashda namuna ko'rsatish bilan birga, bu yaxshi odat ekanligini bolalarga ham tushuntirib borishi zarur.

Bola xulqining shakllanishi va uning umumiy kamol topishida ijobiy mazmunli va ijodiy xarakterdagi o'yinlar kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Bolalar o'yinlari tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi uchun ularga rahbarlik qilish kerak. Bu ish tarbiyachi va ota-onalardan alohida vaqt talab qilmaydi. O'z ishi bilan band bo'lib turgan ota-onalar ham bolalar o'yinining mazmuni bolalarda insoniy fazilatlarni tarkib toptirishga, tashabbuskorlik, mustaqillik, samimiylik kabi xususiyatlarni rivojlantirishga yordam berishi yoki bermasligini bilib olishlari mumkin. Ehtiborli ota-onalar bolaning nima bilan shug'ullanishi va unga qiziqarli o'yinlarni topishida yordam berishi kerakligini o'ylaydilar va albatta topadilar.

Ota-onaning mehri, atrofdagilarning mehri, ularning olqishlari bolani mustaqil fikrlashga va mustaqil ish boshlashga ishonchini uyg'otadi. Tarbiyachilar, ota-onalar boladagi bu harakatni, ishonchni sezgandan boshlab, ularga sharoit yaratishi va ularni to'g'ri yo'naltirishlari lozim. Ota-ona va tarbiyachilar o'rtasidagi tarbiya uzviyligi yoshlarni shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Sen o'zing uddalay olasan, bunga qurbing etadi, deb ishontirish va bu ishonchni rolli o'yinlar orqali amalga oshirish muhimdir. Chunki rolli o'yinlar bolalar uchun ijtimoiy muhit yahni bolaning aniq maqsadlar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir bolaning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi, uning insoniyat tajribasi, madaniyat va qabul qilingan, tan olingan xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Rolli o'yinlar jarayonida inson faoliyati, mehnat va odamlar o'rtasidagi munosabatlar sohasi bevosita aks etadi, shuning uchun bola zimmasiga olayotgan rolning mazmunini faoliyatning aynan shu tomonlarini qayta tiklash tashkil qiladi. Chunki rolli o'yinda bola u yoki bu mahnaviy tasavvur haqida og'zaki informatsiya olish bilan cheklanmay, mahnaviy faoliyatni amalga oshirishda bevosita ishtirok etadi, uni ichdan kechiradi, mahnaviy tasavvur ichki kechinma, xis - tuyg'u shakliga o'tadi. Oddiy pand nasihatlar orqali u mahnaviy tasavvurlar haqida eshitsa, kattalarni kuzatish orqali shu tasavvurlar namunasini ko'radi. O'yin jarayonida esa u tasavvurga mos xulq shaklini bajaradi, uni xis qiladi, ichdan kechiradi.

DIDAKTIK O'YINLAR MAZMUNI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyatida o'yin o'zining ko'p qirrali xususiyati, tahlil-tarbiyaviy mohiyati bilan asosiy ahamiyatga egadir. Bolalarda sog'lom ruhiyatni shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish qulaylik tug'diradi. O'yin shaklida o'tkaziladigan mashqlar bolalarning diqqatini o'ziga jalb

qiladi, qiziqtiradi, natijada bolalar o'zlarini qiynamay, o'zlarini majbur qilmay takrorlash lozim bo'lgan so'z yoki harakatni osonlik bilan takrorlay oladilar.

Didaktik o'yinning asosiy mohiyati shundaki, kattalar tomonidan bolalarga o'yin shaklida aqliy vazifani bajarish, hal etish vazifasi topshiriladi.

Har bir o'yin o'ynashdan oldin bolalarga o'yin qoidasi, o'yin mazmuni, uning yakuni nimadan iborat ekanligi tarbiyachi tomonidan tushuntiriladi. Bolalar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar. Bolalarning o'z faoliyatlarini mahlum tartibda mana shunday maqsadga bo'ysundirilishi, ularning diqqatini, irodasini va aqliy faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi. O'yin qoidasiga rioya qilish natijasida bolalar faqatgina bajarilishi mumkin bo'lgan narsani emas, balki nima ishni qilmaslikni ham o'rganadilar. Buning natijasida bolalar didaktik o'yinda ko'pincha o'zlaricha o'zboshimchalik bilan harakat qilishdan to'xtaydilar, o'zlarini tuta bilishga, o'zlarini boshqarishga o'rganadilar.

Har bir didaktik o'yin o'zining mahlum yakuni, natijasiga ega. o'yinda mahlum kutilgan natijaga erishish esa o'yin qoidasiga rioya qilish, vazifani bajarish orqali amalga oshiriladi. O'yin shunday yakunlanadiki, bolalar o'yindan mahnaviy ozuqa oladilar, ularga mahlum darajada, bilim beriladi, yangi bir narsaga o'rgatiladi. Bolalar esa har bir qiziqarli o'yindan so'ng o'zlarini xursand, xushchaqchaq sezadilar, ularning ehtiyoji qoniqtiriladi. O'yin oxirida o'yin jarayonida vazifani, o'yin qoidasini yaxshi, namunali bajargan bolalar rag'batlantiriladi, ularning faoliyatlari alohida qayd qilib o'tiladi.

Tabiat hodisalari, ijtimoiy voqelik, mehnat va turmush shart-sharoitlari bilan tanishtirish orqali bolalarning aqliy tarbiyasi amalga oshirib boriladi. Bola hayotdagi turli voqea - hodisalarni ko'radi, kuzatadi. Ammo har bir ko'rgan voqea - hodisani to'g'ri tushunavermaydi. Chunki hayotda bunday narsalarni shunchalik ko'p ko'rish, kuzatish mumkinki, natijada bola o'z oldiga aniq bir maqsad qo'yishda ojizlik qiladi. Bu masalada albatta unga kattalarning yordami talab etiladi.

Didaktik o'yin ham xuddi boshqa o'yinlar kabi bolalarda xushchaqchaqlik tuyg'usini uyg'otish vositasi hisoblanadi. Natijada bola muvaffaqiyatga erishishga intiladi, faol harakat qiladi. Bolalarning tashabbuskorligi ortib, o'yin davomida ko'tarinki ruh bilan harakat qiladilar, bu intilish natijasida esa vazifani - topshiriqni bajara olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Didaktik o'yinlar o'z mazmuniga ko'ra bolalarning axloqiy sifatlarining shakllanishiga tahsir etadi. Masalan «Ishchilar nimani ishlab chiqaradilar, dehqonlar nimalarni etishtiradilar?» nomli o'yinni o'ynash orqali bolalar bir tomondan nimaning qaerda ishlab chiqarilishini, ikkinchi tomondan narsalarni ishlab chiqarish, etishtirish uchun qancha mehnat sarf qilinishi bilan ham tanishadilar va ularda kattalarning mehnatiga hurmat tarbiyalanadi.

Didaktik o'yinda bolalar o'yin qoidasiga rioya qilish orqali ayrim keraksiz harakatlarni bajarishdan o'zini tiyishga, cheklanishga o'rganadilar. Bu esa bolada intizomning tarbiyalanishiga yordam beradi. O'yinda qo'llaniladigan usullar bolada ijobiy sifatlarining tarbiyalanishiga tahsir etadi, xushchaqchaqlik, o'yin natijasidan quvonish hissiyatini uyg'otadi.

Didaktik o'yinlarning xususiyati shundaki, u bolalarning faolligini, tashabbuskorligini oshiradi, ularni mustaqillikka, o'z kuchiga ishonishga o'rgatadi.

Shuningdek, o'yinda bolaning irodasi va xarakteri shakllana boradi. Bola rostgo'ylik, to'g'rilikka o'rganadi. Jamoa bo'lib ishlashga, harakat qilishga odatlanadi.

Didaktik o'yinlardan to'g'ri foydalanish uchta asosiy masalaga, yahni didaktik o'yinlarni tanlash, tashkil qilish va o'tkazishga ehtibor berish zarur.

O'yinni tanlashda avvalo uning g'oyaviy mazmuniga, mahnaviy va axloqiy qimmatiga ahamiyat beriladi. O'yinning vazifasi va maqsadi tahlil va tarbiya maqsadiga mos kelishi zarur. Didaktik o'yinlarni tanlashda bolalarning saviyasi, bilim doirasini hisobga olish lozim. Tanlangan o'yin mazmuniga ko'ra kerakli jihozlar oldindan tayyorlab qo'yilishi zarur.

DIDAKTIK O'YINLARDAN NAMUNALAR

Rasmlarga qarab gap tuzish o'yini

O'yinning maqsadi: Bolalarning yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarini mustahkamlash. Rasmlarga qarab gap tuzish yo'li bilan ularning tushunchalarini kengaytirish, fikrlarini muhokama qilishga o'rgatish.

O'yin uchun jihozlar: Turli holatlar, vaziyatlar aks ettirilgan rasmlar kartochkalar.

O'yinni o'tkazish: Bolalarning hammasiga bittadan kartochka tarqatib chiqiladi. Tarbiyachi bolalarga rasmlarga qarab gap tuzishni taklif qiladi. (Masalan, qizcha idishlarni yuvayotgan bo'lsa: «Nigora onasiga qarashib, idishlarni yuvyapti»; qizcha uyni supirayotgan bo'lsa: «Gulnoza uylarni tozalayapti»; bola qushlarga in qurayotgan bo'lsa:

«Adham qushlarga in yasayapti»; bola qizchani sochini tortayotgan bo'lsa: «Sanjar Dilzodaning sochini tortib, yig'latyapti» va hokazo.)

Bolalar bu vazifani qanday bajarganligini aniqlash maqsadida har biridan so'raladi, bildirilgan fikrlar qanday ish yaxshi-yu, nima yomon tarzda muhokama qilinadi. Vazifani bajara olmagan bolalarga yordam beriladi.

KYERAKLI RASMLARNI TOPISH O'YINI

O'yinning maqsadi: Narsalarning nomini, ishlatish joyini aniqlashga o'rgatish, ozodalik, tartib-qoidalarga rioya qilishga odatlantirish.

O'yin uchun jihozlar: Mahlum vaqtda bajarilishi lozim bo'lgan ish mazmunini aks ettirilgan katta rasmlar (ertalabki yuvinish, kiyinish, ovqatlanish kabi faoliyatlar aks ettirilgan mazmunli rasm bo'lishi mumkin). Katta rasmda aks ettirilgan narsalarning alohida ishlangan rasmlar kartochkalari (tish poroshogi, cho'tkasi, taroq, qoshiq, tarelka, piyola va boshqalar).

O'yinni o'tkazish: Mazmunli rasmlardan bittasi olinib bolalarga ko'rsatiladi. Rasmda nimalar aks ettirilganini bolalar yaxshilab ko'rib olganlaridan keyin ulardan

biriga kartochkalarni stol ustiga qo'yib chiqish topshiriladi. Bola kartochkalarni qo'yib chiqqandan so'ng rasmda aks ettirilgan faoliyat haqida so'zlab beradi va bu erga qo'yilgan buyumlarning nomini ham aytadi.

Bu o'yinni bolalar o'zlashtirib olganlaridan keyin uni murakkablashtirilgan boshqa variantlarda ham o'ynash mumkin. Bunda faqat kundalik faoliyatda mahlum vaqtda qilinadigan ish mazmuni aks ettirilgan katta rasmlar asosida o'yinlar o'tkaziladi. Bolalar rasmlarga qarab bu qaysi vaqt (ertalab, kechqurun,) nima ish qilinayotganligini va qanday buyumlardan foydalanilayotganligini to'liq so'zlab beradilar. Bu o'yinni boshqa holatlar (mehmondorchilik, yig'im-terim) tasvirlangan rasmlar bilan ham o'tkazish mumkin.

IDISHLARNI TURIGA KO'RA AJRATISH O'YINI

O'yinning maqsadi: Idishlarni turiga qarab ajratish orqali buyumlarning xilma-xil bo'lishini va turli maqsadlarda ishlatilishini, ularni umumiy so'z bilan ifoda etishga odatlantirish.

O'yin uchun jihozlar: CHoy va ovqatlanish uchun zarur bo'lgan idishlar, oshxonada foydalaniladigan idishlar hamda o'yinchoqlar aralashtirib qo'yiladi. Ayrim idishlar o'rnida rasmlı lotolardan ham foydalanish mumkin.

O'yinni o'tkazish: Stol ustiga idishlar va o'yinchoqlar tayyorlab qo'yiladi.

Tarbiyachi bolalarga murojaat etib, bugun biz sizlar bilan narsalarni turlariga ajratishni o'rganamiz. Sizlar stol ustidagi narsalarning har birining nomini aytib, stolning bir tomoniga ajratib qo'yasizlar, deb tushuntiradi. Stol yoniga chaqirilgan bola vazifani bajarganidan keyin, uni bir so'z bilan ifodalaydi. Yahni, bu choy idishlari yoki ovqatlanish uchun kerakli idishlar, deb ataydi. Idishlarni ajratishda qiynalgan bolaga boshqa bolalar yordamlashadilar. Shu tariqa o'yin bir necha marotaba takrorlanadi.

O'yin natijasida bolalar buyumlar haqidagi umulashtirilgan so'zlarni o'zlashtirib olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Turli idishlardan vazifasiga ko'ra to'g'ri foydalanishga odatlanadilar.

O'XShASHINI TOP O'YINI.

O'yinning maqsadi: Bolalarning kuzatuvchanligini, diqqatini tarbiyalash va soʻz lugʻatini boyitish.

O'yin uchun jihozlar: Juftli lotolar, narsalar tasvirlangan lotolar va buyumlarning oʻzidan, oʻyinchoqlardan foydalanish mumkin.

O'yinni oʻtkazish: Tarbiyachi bugungi oʻyinning nomi bilan bolalarni tanishtirgandan keyin, tayyorlab qoʻyilgan narsalar, oʻyin qoidasi toʻgʻrisida mahlumot beradi.

Bolalardan bittasini stol yoniga chaqirib, istagan narsasini olib oʻrtoqlariga koʻrsatish va uning nomini aytish taklif etiladi. Bola birinchi vazifani bajargandan soʻng ikkinchi vazifani bajarishga oʻtadi. Yahni olib koʻrsatgan narsaning oʻxshashini topib, uning oʻxshashligi nimada ekanligini va nomini aytib tushuntiradi.

Shu tariqa oʻyin stoldagi narsalarning hammasi tamom boʻlguncha davom etadi.

Bu oʻyinni guruhlashtirilgan narsalar, yahni sabzavotlar, mevalar, idishlar, mebellar, ustki va oyoq kiyimlar namunasida ham oʻtkazish mumkin.

KIMGA NIMA KYeRAK OʻYINI

O'yinning maqsadi: Bolalarni qisqa jumlar tuzib soʻzlashga oʻrgatish, turli kasblar haqidagi tasavvurlarini shakllantirish.

O'yin uchun jihozlar: Duradgorga, tikuvchiga, oʻquvchiga kerakli matolar, mehnat quroli va boshqa narsalarni stol ustiga aralashtirib qoʻyiladi.

O'yinni oʻtkazish: Tarbiyachi stol ustidagi bor narsalarni bolalarga koʻrsatib, tanishtirib chiqadi va hozir biz sizlar bilan «KIMGA NIMA KYeRAK?» oʻyinini oʻynaymiz, deydi. Bolalardan birini stol oldiga chaqirib: Nodira sen mana bu erdagi narsalar orasidan tikuvchiga kerakli narsalarning nomlarini aytib, oʻrtoqlaringga koʻrsatib, alohida ajratib qoʻyishing kerak - deydi. Shu tariqa oʻyin bir necha marta takrorlanadi. Tarbiyachi bolalarni soʻzlashi davomida ularning nutqini kuzatib, toʻgʻri jumlar tuzib soʻzlashiga ehtibor beradi. Bolalar yoʻl qoʻygan xatolarni oʻz oʻrnida toʻgʻrilab boradi.

Bu o'yinni bir necha xil variantda o'tkazish mumkin. Bolalarga beriladigan materiallarni o'zgartirib, o'yin mazmuni takomillashtirib boriladi. Ayrim vaqtlarda narsalarning rasmi aks ettirilgan lotolardan ham foydalanish mumkin bo'ladi.

MAGAZIN O'YINI

O'yinning maqsadi: Bolalarning sabzavot va mevalarning turli rangi, shakli, xususiyati, mazasi haqidagi tushunchalarini kengaytirish, mustahkamlash, ularni sabzavot va mevalarni etishtirish yo'llari bilan tanishtirish orqali so'z boyligini oshirish.

O'yin uchun narsalar: Kartoshka, sabzi, lavlagi, piyoz, nok, anor, pomidor, sholg'om, turp, rediska, bodring, olma, shaftoli, o'rik, limon, olcha, gilos, olxo'ri va boshqalar.

O'yinni o'tkazish: Tayyorlangan sabzavot va mevalarning hammasi stol ustiga qo'yiladi. Tarbiyachi va bolalardan birontasi sotuvchi vazifasini bajaradi. Bolalar sotuvchining oldiga kelib, olmoqchi bo'lgan narsasining nomini aytib, rangi, shakli, mazasini qanday istehhmol qilinishini izohlab beradi. Shundan so'ng sotuvchi uning nomini aytib mazkur sabzavot yoki mevani olib, bolaning qo'liga beradi. Bola olgan narsasi haqida to'liq gapirib bergandan so'ng nomini aytadi, keyin boshqa bola chiqadi. Har bir sabzavot va mevalardan nimalar tayyorlanishi haqida boladan so'rash lozim. Masalan: Sabzini pishirmasdan ham istehhmol qilish mumkin. Undan tashqari sabzini biz ovqatlarga ishlatamiz. Qanday ovqatlarga ishlatiladi? Sabzini biz palov, sho'rva, shovla kabi ovqatlarda ishlatamiz.

O'rik-bu mevalarga kiradi. o'zi sariq, qizilroq rangda bo'ladi, mazasi shirin, ichida danagi bor. O'rikni biz shunday istehhmol qilishimizdan tashqari qiyom, kompot, sharbat, turshak qilishimiz mumkin.

Mana shu tariqa stol ustiga qo'yilgan hamma narsa, sabzavot va mevalar ustida bolalar bilan suhbat olib boriladi va ularning sabzavot, poliz ekinlari va mevalar haqidagi fikr mulohazalari kengaytiriladi, mustahkamlanadi.

Eslatma: o'yin bolalarda zerikarli va uzoq cho'zilib ketmasligi uchun sabzavot va mevalarning sonini ko'paytirib yubormaslik lozim. Keyingi safar avvalgi o'yinda

foydanilmagan poliz ekinlari va mevalar, sabzavotlar bilan alohida o'yin o'tkazish mumkin. O'yin uchun olinadigan meva va sabzavotlarni fasllarga qarab tanlanadi. Ayrim vaqtlarda esa sabzavot va mevalarni rangli qilib ishlangan rasmlı lotolardan - kartochkalaridan ham foydalaniladi. Imkoniyat bor joyda o'yindan keyin mevalardan eb ko'rish ham mumkin.

BIZNING KUN O'YINI

O'yinning maqsadi: Bolalarning sutka qismlari ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi haqidagi tasavvurlarini aniqlash.

O'yin jihozlari: Kun davomida ketma-ket davom etadigan xilma-xil faoliyatlar tasvirlangan rasmlar (foto rasmlar): o'rinni yig'ishtirish, nonushta, mashg'ulot va boshqalar.

O'yinning borishi: Rasmlar o'yin qatnashchilariga tarqatiladi. Boshlovchi o'zida birinchi rasmni qoldiradi. U o'yinni boshlaydi: «Alisher bilan Dilshod ertalab turib o'rnini yig'ishtirmoqda». Boshlovchi o'zidagi rasmlarni bolalar oldiga qo'yadi. Keyingi rasm kimda bo'lsa o'sha bola «Ular yuvinishyapti» deb davom etadi va rasmni uning o'ng tomoniga qo'yadi va hokazo. hamma rasmlar tartibi bilan qo'yib bo'lingach o'yin tugaydi.

HAFTA KUNLARI O'YINI

O'yinning maqsadi: hafta kunlarini eslab qolish.

O'yinning borishi: Yettita bola doskaning oldiga chiqariladi. Bolalar qator bo'lib turadilar. Tarbiyachi bolalardan nechta bola doska oldida turganini so'raydi. Shundan keyin tartib bilan sanaydilar. Tarbiyachi doskaga chiqqan balalar hafta kunlari ekanligini aytadi va tartib bo'yicha ularning o'rinlarini ko'rsatadi. Kimda - kim shu o'rinda tursa, o'sha bola bir qadam oldinga chiqadi va haftaning qaysi kuni ekanligini aytadi. Birinchi turgan bola yakshanba, ikkinchi turgan bola dushanba va hokazo. Bu o'yin ikki marotaba takrorlanadi.

HARAKATLI O'YINLAR.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda, sog'lom, chiniqqan, chaqqon va ruhan tetik qilib o'stirishda harakatli o'yinlarning tutgan o'rni juda katta. Mahlumki, o'yin bola faoliyatidagi tabiiy ehtiyoji, insonning o'sishi, kamolotidagi zaruriy vosita hisoblanadi. Bola harakatsiz turolmaydi. harakatli o'yinlar ham o'z qoidasiga va yakuniy natija - maqsadga ega bo'lib, ko'proq musobaqalashuv tarzida bo'ladi. Yahni, o'yin ishtirokchilari guruhlariga bo'linib kuch sinashadi, g'olib chiqish uchun intiladilar, harakat qiladilar. Bu esa bolalarni o'z ehtiyojlarini, qiziqishlarini qondirishga va zavqlanishiga olib keladi. Bu xildagi o'yinlarni o'ynash orqali bolalarning ayrim o'ziga xos xususiyatlari shakllanadi, qathiylashadi, yahni irodasi mustahkamlanadi, aqliy faoliyati rivojlanadi, qobiliyati va moyilligi o'sib boradi.

Harakatli o'yinlardan bolalarning axloqiy sifatlarini tarbiyalash maqsadida ham keng foydalaniladi. o'yin mazmuniga ko'ra ayrim vazifalarni bajarish orqali bolalarda halollik, o'zaro to'g'ri munosabatda bo'lish, topshirilgan vazifaga nisbatan javobgarlikni his etish, yahni burchga sadoqat, hushyorlik kabi axloqiy sifatlar shakllanib boradi.

LAYLAK VA QURBAQA O'YINI

O'yinning maqsadi: Bolalarda inoqlik va ziyraklik xususiyatini o'stirish.

O'yinning qoidasi: Bolalar orasidan bitta bola laylak rolini bajaradi. Tarbiyachi maydonda bolalarning hammasi sig'adigan «katta hovuz» ni belgilab chizib qo'yadi.

O'yinni o'tkazish: hovuzda bolalar (qurbaqalar) bemalol o'ynab yuradilar. Laylak qanotlarini (qo'lini ikki yoniga yoyib) qoqib uchib keladi. Bolalar esa bu vaqtda hovuzdan chetga qochadilar. Laylak qurbaqani tuta olmasa, uchib osmonga ketadi. Laylak hovuz ichida bir oyoqda sakrashi shart. Hovuzdan tashqarida ikki oyoqda yurishi va uchishi mumkin.

Metodik eslatma: Laylak rolini bajaruvchi bola uzoq vaqtgacha qurbaqani tuta olmasa uning o'rniga boshqa bolani tayinlash mumkin. Chunki bola ko'p yugurib charchab qolishi, uning holati o'zgarishi mumkin.

IKKI O'RTOQ O'YINI

O'yinning maqsadi: Bolalarda o'rtoqlik munosabatini tarbiyalash, ularga chaqqonlikni o'rgatish.

O'yin qoidasi: Guruhga qarab tez yugurishni odatlantirish.

O'yinni o'tkazish: o'yin xonada yoki maydonchada o'tkazilishi mumkin. Bolalar juft bo'lib, saf tortib turadilar. Bitta bola «poyloqchi» etib belgilanadi. Poyloqchi bolalardan 3-5 metr naribroqda poylab turadi. Poyloqchi: «Qaynarbuloq qaynaydi!» so'zini aytishi bilan safning oxirida turgan bolalar har ikki tomondan yugurib borib safning oldiga turib olishlari lozim. Poyloqchi kimga qo'lini tegiza olsa o'sha bola poyloqchi bo'ladi. Oldingi poyloqchi esa uning o'rniga safning oldiga turadi. Shu tariqa o'yin bolalar safning oxirigacha davom etadi. Qaysi qatordan (o'ng va chap qator) kam bola tutilsa shu qator g'olib chiqadi.

Bu o'yin bolalarni ziyraklikka, chaqqonlikka o'rgatish va diqqatini ma'lum maqsadga yaratishga mo'ljallangan. Poylovchi bo'lgan bola bir yo'la ikki tomonga yugurmaydi, bir tomonni poylashga o'rganadi. Ikki o'rtoq esa tezlik bilan safga turib olishga harakat qiladilar.

BO'SH UY O'YINI

O'yinning maqsadi: o'zgarish yuz bergan sharoitga tezlik bilan moslashish, mo'ljallay olish va tez harakat qilishga o'rgatish.

O'yin qoidasi: Bolalar bir-birlarini turtib, itarib yubormasdan, bir doirachadan ikkinchi doirachaga tezda o'tib olishlari, faqat bo'sh doirani (uyni) band etishlari mumkin.

O'yinni o'tkazish: Bu o'yinni maydonchada bir nechta doirachalar chizib o'ynash, yoki halqalarni erga qo'yib o'ynash mumkin. O'rtada boshlovchi turadi. Bolalar bir-biridan 2-3 metr naribroqda o'z doirachalari ichida turadilar. Boshlovchi o'ziga bo'sh uy qidiradi. Bu vaqtda esa bolalar o'zaro bir-birlari bilan imlashib, kelishib olib uylarini almashtiradilar. Boshlovchi esa bu vaqtda ziyraklik qilib o'rtoqlaridan birining

uyini band qilib oladi. Uysiz qolgan bola o'rtaga tushadi. Shu tariqa o'yin bir necha marta takrorlanadi.

Bu o'yinni murakkabroq variantda ham o'tkazish mumkin. Yahni bolalar o'zlariga turli gullarning nomini qo'yishlari mumkin: atirgul, lola, boychechak, gunafsha, chinnigul va boshqalar. O'rtadagi boshlovchi ikkita gulning nomini aytishi bilan shu «gullar» o'z joylarini o'zgartiradilar, qolgan bolalar o'z joylarida turadilar.

TUTILGAN QOPQON O'YINI

O'yinning maqsadi: Bolalarni narsalarning farqini ajratishga, chaqqonlikka o'rgatish.

O'yin qoidasi: Doiradan chetga chiqqan bolalarni tutish mumkin. Tutilgan bola qorovulning qo'li tegishi bilan o'z ismini aytishi shart.

O'yinni o'tkazish: Tarbiyachi hamma bolalar sig'adigan doira chizadi. Qorovuldan tashqari hamma bolalar doiraning ichida turadi. So'ngra doiradan chiqib har tomonga yugurib ketadilar. Qorovul bironta bolani tutishga harakat qiladi. Kimga uning qo'li tegsa o'sha bola qorovul bo'ladi.

O'yinning sharti: Biron narsaning nomini aytish bilan bolalar doira ichiga qochadilar, masalan, jonli narsalar, parrandalar, hayvonlar nomi aytilsa qochadilar. Jonsiz narsalarning nomi aytilsa doiradan chiqib yuradilar. Adashsa, yahni doiraga kirish shart bo'lganda qochsa, u bola o'ynab yoki shehr aytib berishi kerak.

BOG'BON O'YINI

O'yinning maqsadi: Bolalarda tabiatga muhabbat uyg'otish, ularning tabiat haqidagi tushunchalarini o'stirish.

O'yin qoidasi: Belgilab qo'yilgan joygacha yugurish, tartibga rioya qilish.

O'yinni o'tkazish: Maydonchada chiziq chizilib, chiziqning bir tomoni o'tloq deb tushuntiriladi. o'tloq tomonda bog'bon (bola) yuradi. Bolalar esa o'tloqning narigi tomonidan yuradilar. Bolalar o'tloqqa kelib o'z quyonlari uchun o't yulayotgan

harakatni bajaradilar. Bog‘bon ularni poylab turib tutib oladi. Tutilgan bola bog‘bon bo‘ladi. Bog‘bon bo‘lishni istamasa ashula, shehr aytib beradi yoki raqsga tushadi.

BALIQLAR VA BALIQCHI O‘YINI

O‘yinning maqsadi: Bolalar o‘rtasida o‘zaro yaxshi munosabatlarni tarbiyalash, hozir javoblikka va tez harakat qilishga o‘rgatish.

O‘yin qoidasi: «Yo‘q biz qo‘rqmaymiz» degan so‘zdan keyin yugurib chiqish, tutilgan bola esa kuzatuvchiga qo‘shiladi.

O‘yinni o‘tkazish: Xonaning qarama-qarshi tomonida hamma bolalar o‘ynab yuradilar. Hovuzning bir chetida baliqchi yahni bola turadi va u bolalardan «hoy baliqlar, baliqlar. Sizlar baliqchidan qo‘rqasizlarmi?» - deb so‘raydi. Bunga javob bolalar: «Yo‘q, qo‘rqmaymiz», - deb javob beradilar. Bu yugurishda bolalarni bir-birlarini turtib, yiqitib yubormaslikka o‘rgatib borish lozim. Bu vaqtda baliqchi baliqlarni tutishga harakat qiladi. CHiziqdan o‘tib ulgurgan bola tutilmaydi. Tutilgan bola esa baliqchi bo‘lib, baliqchiga yordam beradi.

Tarbiyachi: baliqlar, baliqlar, deyishi bilan bolalar yana o‘z joylarga qaytib keladilar. Har gal tutilgan baliq, baliqchiga yordam berib, bir-birlarining qo‘lini ushlab to‘r tashkil qiladilar va baliq tutadilar. Shu tariqa o‘yin bir necha marta takrorlanadi. Tutilmay qolgan bola yutib chiqadi.

O‘yinni tashkil qilishda va o‘tkazishda tarbiyachi bolalarni hammasini majburan jalb qilishi shart emas. Guruhni ikkiga bo‘lib 10-15 bola bilan ham o‘tkazish mumkin. Hamma bilan bu turdagi o‘yinlar o‘tkazilsa, bolalar charchab qolishlari mumkin. Guruhga bo‘lib o‘tkazilganda esa bir guruh bolalar o‘ynaydi, qolgan bolalar esa dam oladilar. O‘yin bolalarda chaqqonlikni egallashga, tortinchoqlikning yo‘qolishiga tahsir etadi, irodaning, axloqiy sifatlarning mustahkamlanishiga yordam beradi.

SAKRAB O‘YNALADIGAN HARAKATLI O‘YINLAR

Arqondan sakrash o‘yini

O‘yinning maqsadi: Arqondan sakrash orqali to‘siqlardan o‘ta olish, jasurlikni tarbiyalash.

O'yin qoidasi: Belgilangan balandlikni eng olgan bola o'yinda qatnashishni davom ettiradi, balandlikni eng olmagan bola esa o'yindan chiqadi, o'yinda yutgan va yutmagan hisoblanadi.

O'yinni o'tkazish: Taxminan 10 sm balandlikdagi arqonchani bog'lab qo'yiladi. Bolalar saf tortib turadilar va yugurib kelib arqonchadan sakrab o'tadilar. Bolalar vazifaning uddasidan chiqa olsalar, balandlikni o'zgartirish, yahni arqonchani yana 5 sm balandroq qilib ko'tarish mumkin. Shu tariqa hamma bolarlar o'yinda ishtirok etib bo'lganlaridan keyin, o'yindan chiqqanlar g'oliblarga qarsak chalib ularni olqishlaydilar.

Ammo bolalarning qiziqishlariga qarab balandlikni ortiq darajada ko'tarib yubormaslik lozim. Bu esa bolalarning yosh xususiyatlariga to'g'ri kelmaydi.

Bu o'yinda jismoniy tarbiya uchun mo'ljallangan yumshoq to'shak sakrab tushiladigan tomonga solib qo'yilishi zarur.

IRG'ITIB ILIB OL O'YINI

O'yinning maqsadi: Bolalarda o'zaro to'g'ri munosabatni tarbiyalash, o'rtacha kattalikdagi koptokni irg'itib ilib olishga o'rgatish.

O'yin qoidasi: Buyruq asosida o'rtog'iga koptokni to'g'ri irg'itish va ilib olish.

O'yinni o'tkazish: Bolalar doira bo'lib, o'rtada esa tarbiyachi turadi. U bolalardan bittasiga koptokni otadi. Shu vaqtda bolalar «irg'it» va «ilib ol» deb gapiradilar. Koptokni «ot» deganda otish, «il» deganda ilib olish zarur. Koptokni ilib olgan bola «ot» deganda koptokni bolaga qaytarib otadi. O'yin jarayonida «ot» va «il» so'zlarini ishlatish bolalarni ma'lum bir mehyorda harakat qilishga o'rganib borishlarini ta'minlaydi.

Keyinchalik o'yin mazmunini takomillashtirish ya'ni bolalarni ikkita doiraga bo'lish va o'rtada ham tarbiyachi emas, bola turishi mumkin.

MO'LJALGA OTISH O'YINI.

O'yinning maqsadi: Bolalarni chaqqonlikka o'rgatish, koptokni mo'ljalga otish ko'nikmalarini hosil qilish.

O'yinning qoidasi: Keyingiga buyruq asosida koptokni otib, keyingilarni yiqitsa, u bitta ochko oladi. Keyingilar esa tezda to'g'rilab qo'yiladi.

O'yinni o'tkazish: Bolalar doira bo'lib turadilar, xonada bo'lsa o'tirishlari mumkin. Bolalar ikki guruhga bo'linadi. Tarbiyachi mo'ljalga ol va ot degandan keyin qo'lida koptogi bor bola koptokni keyingi mo'ljalga olib otadi. Agar bola keyingilarni yiqitsa, u ochko oladi, yiqitmasa ochko olmaydi, koptokni boshqa bolaga beradi va o'yin yana qaytadan boshlanadi.

Bu o'yin dastlabki davrda boshqa narsalarni mo'ljalga olish bilan boshlanadi. Bolalar mo'ljalga olishni o'rganganlaridan keyin kegli bilan o'ynashlari mumkin bo'ladi.

ISHCHI BOBO O'YINI

O'yinning maqsadi: Bolalarning mehnat faolligini oshirish.

O'yin qoidasi: «Ishchi bobo»ning bajarayotgan turli mehnat harakatlarini to'g'ri takrorlash.

O'yinni o'tkazish: Bolalar doira bo'lib turadilar, o'rtada «ishchi bobo» - bola turadi. U bolalar, menga qaranglar, qanday harakatni qilsam, sizlar ham shu harakatni men bilan birga barobar bajarasizlar deb bolalarga murojaat etadi. «Ishchi bobo» turli ish harakatlarini bajaradi. Masalan: arra bilan arralash, o'roq bilan o'rish, bolg'a bilan mix qoqish, sabzi to'g'rash, ish tikish, qaychi bilan qirqish va hokazo. Doira o'rtasidagi bola bir necha harakatni bajargandan keyin «Ishchi bobo» almashtiriladi va o'yin yana davom ettiriladi.

Bu o'yin bolalarda ziyraklikni o'stiradi. Har bir mehnat harakatini bajarish orqali esa bolalarda malaka va ko'nikmalar hosil qilinadi.

XALQ O'YINLARI

Juftmi toq o'yini

O'yinning maqsadi: o'yin orqali bolalar berkitilgan narsani aniq topishga, sezgirlikka o'rganadilar.

O'yinning mazmuni: Bu o'yinda bir nechta bolalar qatnashishi mumkin. Ammo ikkitadan bo'lib o'ynaydilar. Bularning bittasi berkitadi, ikkinchisi qaysi qo'lga berkitganini topadi va juftmi, toq ekanligini bilish uchun sanab ko'radi. Berkitish uchun mayda cho'p yoki tosh olinadi.

O'yin qoidasi: Qo'llarini orqaga qilib narsa berkitiladi, so'ngra: «qaysi qo'limda topa qol» - deydi. Ikkinchi bola topa olsa narsani o'zi yashiradi. Har ikkala bola ham yashirayotganda faqat o'rtog'ining ko'ziga qarab turadi, topayotganda esa, sezgirlik bilan o'rtog'ining xatti - harakatini kuzatadi.

O'yinning ahamiyati: o'yinda bolalar juda qiziqish bilan o'ynaydilar va berkitilgan narsani topishga harakat qiladilar. O'yinda ishlatiladigan cho'p, tosh bolalarga ko'rinadigan joyda turishi tavsiya etiladi. Chunki ularni bolalar o'zlari olib mustaqil o'ynayveradilar. O'yin bolalarga eslatib turiladi. O'yinning tahlil-tarbiyaviy tomoni shundaki, u bolalarni son-sanoqqa va ziyraklikka o'rgatadi. Ko'zga qarab sezgirlik bilan topa olish qobiliyatini o'stiradi. Sabr-matонатni tarbiyalaydi. Bunday xususiyatlarning bola shaxsida shakllanishi esa juda ko'p mehnat talab etadi.

AYLANA DARRA O'YINI

O'yinning maqsadi: Bolalarni hushyor, chaqqon bo'lishga odatlantirish.

O'yinning mazmuni: Bu o'yin keng maydonda yoki zalda o'ynaladi. O'yinda bir guruh bolalar qatnashadilar. O'yinda boshlovchi bo'ladi. U qo'lida ro'molcha ya'ni darra ushlab turadi. O'ynaydigan bolalar doira hosil qilib turadilar. O'yinni boshlovchi qo'lidagi darrani birorta bolaning orqasiga sekin qo'yib ketadi. Buni sezgan o'ynovchi darrov darrani olib uni quvlab ketadi, u boshlovchidan oldin o'z joyiga etib kelsa, o'yinni davom ettirish boshlovchining o'zida qoladi. Agarda etib kela olmasa darrali bola o'yinni davom ettiradi. O'yin mana shu tarzda davom etadi.

O'yin qoidasi: o'yinda aylana o'rtasiga kirish mumkin emas.

O'yinning ahamiyati: o'yinda qatnashgan har bir bola hushyorlik, chaqqonlik bilan harakat qilgandagina yutib chiqadi. Bu o'yin bolalarda ziyraklik, chaqqonlikni tarbiyalaydi.

O'RTA BARMOQNI TOP O'YINI

O'yinning maqsadi: «o'rta barmoqni top» o'yinida bolalarni uyushqoqlik bilan o'ynashga, barmoqlarini bir-biridan farq qila bilishga o'rgatiladi.

O'yinning mazmuni: «o'rta barmoqni top» o'yinini istagan erda o'ynash mumkin. Bu o'yinda 5-6 ta bola qatnashadi. O'yinda bir bola qo'l barmoqlari orasiga o'rta barmog'ini berkitadi, qolgan bolalar esa topadilar. O'yin boshlovchisini aniqlash uchun sanashdan foydalanadilar. Hamma bolalar chiqib eng oxirida qolgan bola o'yinni boshlaydi. U chap qo'lini orqasiga qilib barmoqlarining faqat uchlarinigina ko'rsatib turadi, so'ngra o'rtoqlariga ko'rsatib, «o'rta barmoqni top» - deydi. Bolalar diqqat bilan uning qo'lga qarab, o'rta barmoqni qidira boshlaydilar. Berkitilgan barmoqni ushlash uchun bolalarda o'ziga ishonish, ishonmaslik, qaysi birini ushlasam ekan degan tortishuvlar, ichki hayajonlar yuz beradi. Bolalardan bittasi bir barmoqning uchini mahkam ushlaydi. Shunda berkituvchi o'ng qo'lini qo'yib yuboradi. Agar topuvchi barmoqni to'g'ri topgan bo'lsa, berkituvchi shartga ko'ra biron narsa qo'shiq, shehr aytib beradi. Bordi-yu topolmasa, topuvchining o'zi yutqazgan hisoblanadi va o'yin shartini bajaradi. O'yinni barmoqni to'g'ri topgan bola davom ettiradi. O'yin bolalar uchun yangi bo'lib, uzoq vaqt topolmasalar unda rolni kelishib boshqa bolaga topshiradi. Shu tarzda o'yin davom etadi.

O'yin qoidasi: Bu o'yin vaqtida besh barmoqning uchi ko'rinib turishi shart. O'rta barmoq faqat barmoqlarning uchiga qarab topiladi.

O'yinning ahamiyati: «o'rta barmoqni top» o'yini ermakli so'z o'yinlaridan hisoblanadi. Chunki o'ynash vaqtida bolalar «o'rta barmoqni top», «bilsang topa qol», «sezgir bo'lsang o'rta barmog'imni top», «tezroq top» degan so'zlarni tez-tez aytib turadilar. Qolgan bolalar o'rtog'ining o'rta barmog'ini topishga harakat qiladilar.

Bu o'yinda bolalarda boshlagan ishni oxiriga etkazish, kuzatuvchanlik, farq qila bilish kabi qobiliyatlar o'stiriladi.

IJTIMOIIY PSIXOLOGIK TRENINGLAR

«Trening» tushunchasi inglizcha «oʻrgatish», «mashq» degan mahnoni anglatadi. *Ijtimoiy psixologik trening* esa turli ijtimoiy faoliyat sohalariga shaxsni tayyorlashdan iborat boʻlib, bunda zarur ijtimoiy malakalarni orttirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshiriladi.

Bolalarning turli ijtimoiy rollar doirasida oʻzaro har xil rolli va syujetli oʻyinlar bilan mashgʻul boʻlishlari, unda turli oʻqituvchi, tarbiyachi, haydovchi, sotuvchi, mehmon va hokazo rollarni bajarishi ulardagi nafaqat dunyoqarashni, balki boʻlgʻusi ijtimoiy faoliyatlarga tayyor boʻlishlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Trening mashhulotlari uchun maxsus vaziyat, aniq maqsad va mashgʻulotlarni oʻtkazuvchi shaxs zarur. Oʻyinda asosan, ijtimoiy faollik talab qilinadi. Chunki rolli vaziyatlarda bolalar aniq xulq-atvor shakllarini namoyon qilishlariga toʻgʻri keladi. Trening mashgʻulotining boshlovchisi-tarbiyachi esa muayyan joyda vaziyat, rollarni tahlil qilgan holda uning mohiyatini bolalarga tushuntirishi va ularning tafakkur va qarashlarining egiluvchan hamda vaziyatlarga mos boʻlishini tahminlashi kerak.

Ijtimoiy psixologik trening mashhulotlarida namoyon boʻladigan xulq-atvor shakllarining obʻektivlashuvi, yahni bolalarning oʻzaro munosabati va rolining talablaridan kelib chiqqan holda shu rolga mos harakatni real xulqda mustahkamlashi muhim hisoblanadi.

Treningda bolalar bir-birlariga hissiy yaqin boʻlishlari, oʻzaro bevosita tahsir koʻrsatish yoki koʻzlariga boqish imkoniyatlariga erishish kerak.

SALOMLASHISH OʻYINI

Tarbiyachi bolalarni aylana shaklida turishlarini soʻraydi va ularni navbatma-navbat oʻrtaga chiqib guruh bilan xohlagan tarzda lekin, samimiy salomlashishni aytadi. Keyin bolalardan kimning salomi koʻproq yoqqanligini soʻraydi. Oʻyin shu tarzda davom etadi.

TUGʻILGAN KUNGA SOVGʻA OʻYINI

Bolalardan biri guruh oldiga chiqib o'tiradi. Tarbiyachi bugun uning tug'ilgan kuni ekanligini aytib, har bir bola individual tarzda sovg'a qilish kerakligini tushuntiradi. «Sovg'a berish tugagandan so'ng nima uchun aynan shu narsa sovg'a qilinganligini asoslab berish kerak. Sovg'alar xonadagi mavjud narsalar asosida tayyorlanadi. Bolalar «Tug'ilgan kun egasi» roliga navbati bilan o'ynaydi».

TYeLYeFON O'YINI

Guruh bolalari navbat bilan telefonda o'zi tanlagan o'rtog'i bilan tarbiyachi tomonidan belgilangan vaqt mobaynida xohlagan mavzuda gaplashadi. Tarbiyachi va qolgan bolalar ularning o'zlarini tutishi, bir-birlari bilan muomalasi, xatti - harakatlarini kuzatib turadilar. So'ng tarbiyachi boshchiligida o'yin muhokama qilinib kerakli maslahatlar beriladi.

INTYeRVG'Yu O'YINI

Tarbiyachi bolalarga intervg'yu sifatida turli toifali shaxslardan (vrach, sotuvchi, o'qituvchi, artist, sportchi va hokazo) intervg'yu olishni aytadi, u o'zi bir bola bilan shu rolni ijro etadi. So'ng bolalar o'zlari xohlagan rolni tanlab intervg'yu oladi. O'yin tugagach har bir ijro etilgan rol tahlil qilinadi.

MYeHMON-MYeHMON O'YINI

O'yinning ahamiyati: Mehmonni hurmat qilish zarurligini, u bilan samimiy munosabatda bo'lishning shakllarini namoyon qilish, mehmon kutish odobini shakllantirish.

O'yinning borishi: Tarbiyachi «hozir bolalardan ikkitasi xonadan tashqarisiga chiqib turadi. Ular bizning hurmatli mehmonlarimiz bo'ladi. Bolalardan uch nafari mezbon bo'lib mehmonlarni kutib oladi. Mezbonlar mehmonlarni yaxshi qarshi olib, salomlashib, xol-ahvol so'rashib, zeriktirib qo'ymaslikka harakat qilishlari va odob bilan kuzatib qo'yishlari kerak. Qolgan bolalar tarbiyachi bilan birgalikda mehmon va mezbon rolini bajaruvchi bolalarning xatti-harakatlarini kuzatib o'tiradi.

O'yin tugagach tarbiyachi boshchiligida o'yinni kuzatgan bolalar kim mehmon bilan yaxshi, samimiy, ochiq yuz bilan, kim sovuq, yuzaki qo'pol, odobsizlarcha munosabatda bo'lganligini odilona muhokama qilishadi. Rollar almashinib o'yin davom ettiriladi.

SIFATLAR DO'KONI O'YINI

Tarbiyachi bolalarga do'konda «xushmuomala», «ochiq yuz», «samimiy» kabi sifatlar sotilayotganligini kimga qaysi sifat ma'qul bo'lsa shu sifatni sotib olish mumkinligini aytdi. Bolalar tarbiyachidan o'zlari xohlagan sifatni sotib oladilar so'ng, nima uchun shu sifatni sotib olganligi haqida so'zlab beradi.

SO'ZSIZ GAPLASHISH O'YINI

Tarbiyachi bolalarga quyidagilarni tushuntiradi: hozir bir bola xonadan chiqadi, qolgan bolalar esa unga qanday gapni uzatishlarini kelishib oladilar. Uni xonaga chaqirganlaridan so'ng bolalar imo-ishoralar, mimika bilan fikrni uzatishni boshlaydilar. Uning vazifasi fikrni to'g'ri anglab olish. O'yin shu tarzda davom etadi.

OVOZIDAN TOP O'YINI

Bolalar doira bo'lib stullarga o'tirishadi. Bir bola ko'zi bog'liq holda tarbiyachi yordamida doira ichiga kiritiladi. U o'tirganlarni qo'li bilan ushlab ko'rishi mumkin emas. Stulda o'tirgan bolalardan biri uning ismini iloji boricha o'zining ovozidan boshqacharoq ovozda aytib chaqiradi. Topuvchi bola uni topsa u holda topuvchi uning o'rniga o'tiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. I.A. Karimov. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent, 1998.-64 b.
2. I.A. Karimov. Barkamol avlod orzusi. - Toshkent.: «Sharq». 1999.-182 b.
3. I.A. Karimov. Sog'lom avlod tarbiyasi-barchamizning muqaddas insoniy burchimiz. -Tafakkur jurnali. - 2- son 2000 y.
4. Anikeeva N.P. Vospitanie igroy.-M., 1987.
5. Abdurahmonova E. O'yin vositasida o'quvchilarning bilimini mustahkamlash. (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun qo'llanma sifatida). T., 1985.
6. Abdullajonova M., Isaqova M., Zokirova M., Isroiljonov S. Ijtimoiy psixologik treningdan praktikum. « Farg'ona nashriyoti», 2003 y.-68 b.
7. Bandarenko A.K. Didakticheskie igrq v detskom sadu. M., 1985.
8. Bogoslavskaya Z.N. Razvivayuo'ie igrq dlya detey doshkolg'nogo vozrasta.-M., 1991. - 206 s.
9. Buyuk siymolar, allomalar. O'rta Osiyoda mashhur mutafakkir va donishmandlar.-T.: Qodiriy nomidagi adabiyot va sanhat nashri. 1995, 1-kitob.
10. Vospitanie detey v igre. (sos A.Ye.Bondarenko, A.I. Matusik.-M.: 1989.)
11. Daminova M, Adambekova G. O'yin mashg'ulotlari. T. «O'qituvchi». 1993-92 b.
12. Inomova M. Oilada bolalarni mahnaviy va axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. - T.: Fan, 1995 y.
13. Yo'ldasheva R. O'zbek xalq o'yinlarining tarbiyaviy ahamiyati. - T.: 1992.-119 b.
14. Karpova S.N. Lqsyuk L.G. Igrq i npravstvenne razvitie doshkolg'nikov. - M.: 1986-116 s.
15. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya. - T.: o'qituvchi, 1994.-95 b.

16. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. - T.: Universitet. 1999. -94 b.
17. Kon I. Rebyonok i obo'estva. - M.: 1988.
18. Mixaylova Z. A. Igrovqe zanimatelg'nqe zadachi dlya doshkolg'nikov. M., 1985.
19. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun matematik o'yinlar. Tuzuvchi mualliflar: N.U. Bikboeva, Z.I Ibrohimova. - T.: «O'qituvchi», 1992.-51 b.
20. Muxina V.S. Detskaya psixologiya. Uchebnik dlya studentov ped. in-tov.-SPb.: Prosveo'enie. 1992. - 303s.
21. Mahkamjonova K. M., G'ulomova I. Bolalar bog'chalarida xalq o'yinlarini o'tkazish. - T.: O'ZPFITI. 1993.-37 b.
22. Niyozova H., YOqubova N. Bolalar bog'chasida xalq o'yinlaridan foydalanish. - Qo'qon. 1995.-42 b.
23. Nikitin B. P. Razvivvyuo'ie igrq. - M.: Znanie, 1994. - 191s.
24. Rasulova M. va boshqalar. O'zbekiston bolalar bog'chasining tahlim-tarbiya dasturi (o'yinlar bo'limi.) - T.: 1992.-12 b.
25. Sorokina A. I. Didakticheskie igrq v detskom sadu.-M, 1982.
26. Semenova L. M. Podvijnqe igrq i razvlicheniya doshkolg'nikov. T., 1986.
27. Toshimov R.Yu. Muomala treningi. - T.: 1994.
28. Elg'konin D.B. Psixologiya igrq. - M.: 1978.-304 s.
29. G'oziev E., Anarmetova Sh. O'yin nazariyalari. - T.: 1995.— 39 b.
30. G'oziev E., Yo'ldosheva Ya. Bolalar psixologiyasi. - T.: 1992.-36 b.
31. Hozieva S.O.,Solixova M. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xalq o'yinlari. - T.: «UBTMU» 1995.-40 b.
32. O'tmish mutafakkirlari tahlim-tarbiya haqida. 2-kitob O'ZPFITI. 1993.

TUSHUNCHALARNING IZOHLI LUG'ATI

- Agressiya. Kimgadir zarar etkazish uchun yo'naltirilgan jismoniy yoki verbal xulq. Laboratoriya eksperimentlarida agressiya deganda hissiyotga tahsir qilish uchun elektr toki bilan zarba berish yoki so'z bilan nafsoniyatga tegish tushuniladi. Agressiyaning bunday sotsial-psixologik tahrifi bo'yicha odam aggressiv bo'lmagan holda qaysar (naporistiy) bo'lishi mumkin.
- Adaptatsiya darajasi fenomeni. Qo'zg'ovchilarning aniq darajasiga moslashish va oqibatda aynan shu darajada sodir bo'ladigan o'zgarishlarga javob berish hamda diqqatni qaratish tendentsiyasi.
- Alhturizm. Ongli shaxsiy egoistik manfaatlar bilan bog'liq bo'lmagan kimgadir yordam ko'rsatish motivi.
- Antikateksis-instinktlarning qondirilishiga imkon bermaydigan to'sqinlik.
- Axloqiy xavotir-individuumning EGOsi (MYeNi) SUPYeREGO (Yuqori - men) tomonidan jazolanishi xavfi tug'ilganda u tomonidan his qilinadigan uyat va aybdorlik hissi.
- Axloqiy esklyuziya. Alohida shaxslar yoki guruhlarini axloq va adolat qonunlari amal qiladigan sohadan tashqarida deb idrok qilish. Axloqiy inklyuziya esa aksincha, boshqalarni axloqiy tamoyillar amal qiladigan soha doirasiga qo'shadi.
- Baholash qo'rquvi. Bizni boshqalar qanday baholashlaridan xavotirlanishimiz.
- «Begona» guruhning gomogenligi samarasi. «Ularining» guruhi «bizning» guruhimizga nisbatan ko'proq bir-biriga o'xshaydi. Shunday qilib «ular bir-biriga o'xshashadi; biz-turli tumanmiz».
- Bidhat. Guruh yoki uning alohida a'zolariga nisbatan asossiz salbiy ustanovka.
- Bixevorial tasdiq. Ijtimoiy kutishlar odamlarni shunday harakat qilishga majbur qilib, ularning xulqi boshqalarni shu kutishlarni tasdiqlashga undashga sabab bo'ladigan, o'z-o'zidan amalga oshadigan bashoratlar tipi.
- Gender. Psixologiyada «erkak», «ayol» tushunchasiga aniqlik beruvchi sotsial-biologik tafsifnoma. Jins biologik kategoriya bo'lganligi uchun sotsial psixologlar aksariyat biologik asoslangan gender farqlarini «jinsiy farqlar» sifatida qarashadi.
- Gender roli. Erkaklar va ayollar uchun ulardan kutiladigan xulq (norma) namunalari to'plami.
- Geterostaz. Odamlar shaxsiy o'sishga intilish, stimullarni qidirish va o'z-o'zini amalga oshirish bilan motivlashganlar deb tasdiqlash.
- Gipoteza (faraz). Erkaklar va ayollar uchun ulardan kutiladigan xulq namunalari to'plami.
- Guruh. Bir necha daqiqadan ko'prok vaqt mobaynida bir-biri bilan hamkorlik qiladigan, bir-biriga tahsir qiladigan, o'zini «biz» sifatida idrok qiladigan ikki va undan ortiq odamlar.
- Guruh ichida. Guruhga mansublik, umumiy identichlilik hissigga ega bo'lgan «Biz» - odamlar guruhi.
- Guruh tashqarida. Odamlar o'z shaxsiy guruhlariga o'xshamaydi va undan farq qiladi deb hisoblaydigan-«Ular» guruhi.

- Guruhiy qutblanish. Guruh tahsiri tufayli uning ahzolaridagi azaldan mavjud tendentsiyalarning kuchayishi; guruh ichida fikrlar bo'linishining o'rniga o'rtacha tendentsiyaning o'z qutbiga tortilishi.
- Deindividualizatsiya. O'z-o'zini anglashning yo'qolishi va baholash qo'rquvi; anonimlikni tahminlaydigan va alohida individga diqqatni tortmaydigan guruhiy vaziyatlarda paydo bo'ladi.
- Depressiv reallik. Yengil depressiya holatida (o'z «Men»i foydasiga emas) obhektiv mulohazalar, atributsiya va bashoratlar tuza oladigan odamlar tendentsiyasi.
- Determinizm. Bizning butun xulqimiz qandaydir hodisalar tahsiriga bog'liq va shuning uchun erkin namoyon bo'lmaydi deb tasdiqlash.
- Diskriminatsiya. Guruh yoki uning ahzolariga nisbatan nohaq salbiy munosabat.
- Do'stlik-muhabbat. Hayoti bizning shaxsiy hayotimiz bilan chambarchas bog'liq odamga nisbatan his qilinadigan moyillik.
- YOn berish. Tashqi tahsirlar ijtimoiy bosimga mos kelsa ham ichki norozilik ishtirok etadigan konformizm.
- Jamoachilik. Shaxsiy maqsadlarga nisbatan u yoki bu guruh (odatda oila yoki ishchi guruh) maqsadlariga ustunlik berish kontseptsiyasi. Shunga mos ravishda o'z-o'zini identifikatsiya qilish amalga oshadi.
- Jipslik. Guruh ahzolarining masalan, o'zaro simpatiya hisobiga bir birlari bilan aloqalari darajasi, «Biz» hissi.
- Jismoniy jozibadorlik stereotipi. Jismoniy jozibador odamlar ijtimoiy mahqul sifatlariga ega bo'lishida prezumptsiyasi: nima chiroyli bo'lsa, demak yaxshi.
- Jozibalilik. Auditoriyani jalb qiladigan sifat. Subhektiv mahqullash katta rolh o'ynagan holatlarda jozibali (ko'proq nimasi bilandir auditoriyaga o'xshaydigan) kommunikator ishonchliroq bo'ladi.
- Identifikatsiya. Bolaning o'z shaxsiy xavotiridan ozod bo'lish va ichki ziddiyatlarini susaytirish uchun boshqalarning, birinchi navbatda ota-onalarining xarakter xususiyatlarini o'zlashtirish jarayoni.
- Identichlilik diffuzii. YOsh qiz yoki yigit kasb yoki mafkuraviy ehtiқodlarini tanlash bilan bog'liq identichlilik inqirozini boshdan kechiradigan yoki boshdan kechirmaydigan Ego-identichlilik maqomi, lekin shu bilan birga qiz yoki yigit aniq bir qarorga kelgani yo'q yoki shunday qaror qabul qilishdan xali juda uzoq.
- Identichlilik inqirozi. YOsh yigit yoki qiz «Men o'zi kimman?», «Qayoqqa qarab ketayapman?» kabi savollarga zo'r berib javob qidirayotgan vaqt davri. Identichlilik inqirozini boshdan kechirayotgan yoshlarga aksariyat o'z shaxsiy ijtimoiy rollarini aniq tasavvur qilish etishmaydi va ular ayni vaziyatda o'zlariga qaysi rol ko'proq mos kelishi mumkinligi haqida turli taxminlar qiladilar.
- Identichlilikka erishish. Kasb yoki mafkuraviy ehtiқodlarni tanlash bilan xarakterlanadigan inqirozni boshdan kechirish natijasida odam u yoki bu qarorni qabul qiladigan Ego-identichlilikka maqomi.
- Ijtimoiy identichlilik. «Men kontseptsiya»mizdagi «Biz» aspekti. «Men kimman?» degan savolga o'zimizni u yoki bu guruhga mansubligimizga asoslanadigan javob varianti. Masalan «Men o'zbekman», «Men musulmonman».

- Ijtimoiy mahsuliyat normasi. Odamlar o'zlariga tobe odamlarga yordam berishadi deb kutish.
- Ijtimoiy reprezentatsiyalar. Hamma tomondan qabul qilingan ehtiqlodlar. Bizning qarashlarimiz va madaniy mafkuramizni o'z ichiga oladigan, ko'pchilik tomonidan mahqullanadigan g'oya va qadriyatlar. Bizning ijtimoiy reprezentatsiyalarimiz bizga dunyoni izohlashga yordam beradi.
- Ijtimoiy taqqoslash. O'z fikr va qobiliyatlarini o'zini boshqalar bilan taqqoslash orqali baholash.
- Ijtimoiy o'rganish nazariyasi. Ijtimoiy xulqqa kuzatish va imitatsiya vositasida hamda mukofotlash va jazolash tahsiri ostida o'rganamiz deb hisoblovchi nazariya.
- Ijtimoiy qiziqish. Shaxsiy maqsadlardan ko'ra ko'proq jamiyat manfaatlari uchun boshqalar bilan o'zaro hamkorlikda namoyon bo'ladigan insoniyatga nisbatan empatiya hissi.
- Ijtimoiy yalqovlik. Odamlarning umumiy maqsad uchun o'z kuchlarini birlashtirganlarida individual mahsuliyatga nisbatan kamroq jon kuydirishlari.
- Individualizm. Guruh maqsadlariga nisbatan o'z shaxsiy maqsadlariga ustunlik berish kontseptsiyasi. Bunda o'z-o'zini identifikatsiya qilish o'zini guruh bilan o'xshatish orqali emas balki shaxsiy atributsiyalar vositasida amalga oshiriladi.
- Instinkt-tug'ma organizm to'qimalari darajasida lokallashgan, tashqi namoyon bo'lishga va keskinlikni bartaraf qilishga intiladigan qo'zg'alish holati. Freyding fikricha, instinkt organizm tug'ma qo'zg'alish holatining mayllar shaklida ifodalanadigan psixik namoyon bo'lishidan iborat.
- Instinktiv xulq. O'rganish bilan bog'liq bo'lmagan, shu turning hamma vakillarida namoyon bo'ladigan tug'ma xulq.
- Katarsis. Emotsional bo'shanish. Agressiyani katarsis orqali shunday tushuntirish mumkin: individu agressiv energiyani yoki agressiv xarakat vositasida yoki tasavvurdagi agressiya hisobiga «ozod qilganda» agressiv qo'zg'alish susayadi.
- Kateksis-psixik energiyaning obhekt, g'oya yoki xulqqa yo'nalganligi.
- Konitiv dessonans. Biri biriga qarama qarshi bo'lgan ikkita fikr paydo bo'lganligini anglashda paydo bo'ladigan zo'riqish. Masalan, biz etarlicha asosga ega bo'lmay turib, o'zimizning ustanovkalarimizga qarama qarshi harakat qilganimizda yoki mantiq boshqasini talab qilib turib boshqa variant foydasiga qaror qabul qilganimizda dessonans paydo bo'ladi.
- Kompetentlilik. O'zining shaxsiy muvaffaqiyatliligi va foydaliligi hissidan kelib chiqadigan, odamga o'zining atrofdagilar bilan samarali o'zaro hamkorlik qilish qobiliyatini anglatadigan kuch va ishonchda ifodalanadigan psixosotsial sifat.
- Konflikt. Idrok qilinadigan maqsad va harakatlar nomuvofiqligi.
- Konformizm. Guruhning real yoki tasavvurdagi bosimi ostida xulq yoki ehtiqlodlarni o'zgartirish.
- Latent davr. Libidoning mudroqlik va diqqatning o'z jinsiga mansub tengdoshlari bilan munosabatlarda qiziqish va malakalarni rivojlantirishga jamlanadigan davri.
- Liderlik. Alohida ahzolar guruh faoliyatini motivlashtiradigan va o'z orqasidan ergashtiradigan jarayon.

- Madaniyat. Odamlarning katta guruhi uchun umumiy bo'lgan avloddan avlodga uzatiladigan tushunchalar, ustanovkalar, odatlar va xulq xususiyatlari.
- Mehyordan tashqari g'amxo'rlik. Bolalarda o'z-o'zini nazorat qilishning rivojlanishi haqida etarli darajada yoki umuman qayg'urmaydigan ota-onalar xulqini tasvirlaydigan atama.
- Men. Falsafiy tushuncha bo'lib, shaxs o'ziga hisob beradigan va mahsuliyatni his qiladigan, rejalashtirilgan xarakter subhektini bildiradi. Men hayvoniy mayllar paydo bo'lishining tsenzori hisoblanadi. TSivilizatsiya va ijtimoiy munosabatlar taraqqiyoti davomida Men madaniyat tomonidan shakllantiriladi, yahni jamiyatdagi madaniy va axloqiy munosabatlar har bir odamga tahsir qiladi, u bilan qo'shilib ketib subhektiv «Men»ni tashkil qiladi.
- «Men» - struktura. Odamning o'z-o'ziga taaluqli bo'lgan mahlumotni qayta ishlashni tashkil qiladigan va yo'naltiradigan o'z-o'ziga ishonch.
- Normalar. Umum tomonidan qabul qilingan va kutiladigan xulq qoidasi. Normalar «to'g'ri» xulqni talab qiladi.
- Plyuralistik savodsizlik. Boshqa odamlarning reaksiyalari, hissiyotlari va fikrlari haqida noto'g'ri tasavvur.
- Proektsiya. Individuum o'zining nojoiz istaklarini boshqalarga tegishli deb hisoblaydigan himoya mexanizmi.
- Prosotsial xulq. Ijobiy, konstruktiv, ijtimoiy foydali xulq; antisotsial xulqning teskarisi.
- Realistik xavotir. Tahdid yoki atrof borliqdagi real xavfni idrok qilishdan paydo bo'ladigan emotsional javob.
- Reallik tamoyili. Mos keluvchi obhekt va yoki shu ehtiyojni qondirish uchun sharoit topilmaguncha instinktini qondirishni kechroq muddatga surib turishni ko'zda tutadigan yo'nalish.
- Rol. Ayni ijtimoiy pozitsiyada odamlar o'zlarini qanday tutishlari kerakligini aniqlab beruvchi normalar to'plami.
- Stereotip. Odamlar guruhining shaxsiy sifatlari haqidagi fikri. Stereotiplar haddan tashqari umumlashgan, noaniq va yangi informatsiyaga rezistent bo'lishi mumkin.
- Stereotiplarga nisbatan ojizlik. Kimdir salbiy stereotipning to'g'riligini tasdiqlaydi degan vayronkor tahsirli xavfsirash.
- Tasviriy idrok. Ko'proq janjallashayotgan tomonlarda paydo bo'ladigan bir-biri haqidagi o'zaro salbiy fikr; masalan, o'z tomoni har doim axloqiy va tinchliksevar, qarshi tomon har doim axloqsiz va agressiv deb hisoblanadi.
- «Tenglar» fenomeni. Ayollar va erkaklarning jozibalilik va boshqa sifatlari bo'yicha o'zlariga «tenglar ichidan» sherik tanlashlari tendentsiyasi.
- Tushuntirish usuli. Hayot hodisalarini izohlashning odatiy usuli. Izohlashning salbiy, pessimistik, depressiv usuli muvaffaqiyatsizlikni barqaror, global va ichki sabablarga bog'laydi.
- Tug'ilish tartibi. Hayot uslubining shakllanishida muhim rol o'ynaydigan individning oiladagi ketma-ketlik pozitsiyasi (masalan, birinchi farzand).

- To'laqonli emaslik hissi. Bolalikda paydo bo'ladigan va keyinchalik balog'at yoshida boshqalardan ustunlik uchun kurashishga asos bo'lib xizmat qiladigan shaxsiy to'laqonli emaslik, beo'xshovlik va noqobillik hissi.
- Ustanovka (attityud). Fikr, hissiyot va maqsadga yo'naltirilgan xulqda namoyon qilinadigan, nimagadir yoki kimgadir nisbatan ijobiy yoki salbiy bag'lovchi reaksiya.
- Ustanovkalarni emlash. Keyinchalik yanada kuchliroq hujumga qarshilik uchun zamin hozirlash maqsadida odamlarning ustanovkalariga kuchsiz hujum usuli.
- Fiksatsiya-frustratsiya yoki ota-onalarning beparvoligi tufayli shaxs taraqqiyotining ilk psixoseksual bosqichda to'xtab qolishi.
- Frustratsiya. Maqsadga yo'naltirilgan xulqning tutilib qolishi.
- Frustratsiya-ona tomonidan ehtiyoj va istaklarning qondirilishiga yo'l qo'yilmasligi. Shuningdek shaxsiy maqsadlarga erishishning tutilib qolishida ham paydo bo'ladi.
- Xindsayt xatosi. Biron-bir odamning natija mahlum bo'lib bo'lgandan so'ng o'zining oldindan ko'ra bilish qobiliyatini bo'rttirish tendentsiyasi. Shuningdek «Men shunday bo'lishini bilar edim» fenomeni sifatida ham mashhur.
- O'z-o'zini idrok qilish nazariyasi. Shaxsiy ustanovkalardagi ishonchsizlik bizni ular haqida «o'zimizni kuzatish» - ustanovkalar namoyon bo'ladigan vaziyatlar va xulqimizning tekshirish orqali xulosa chiqarishga majbur qiladi deb hisoblovchi nazariya.
- O'z guruhi foydasi uchun qayg'urish. Begona guruh ahzolarining ijobiy xulqini mahlum oqlashlar bilan tushuntirish; salbiy xulqini ularning dispozitsiyalari bilan tushuntirish (Ayni o'z guruhining shunday xulqini oqlash).
- O'z-o'zini anglash. Ongning diqqatni o'z-o'ziga yo'naltirilgandagi holati. Bu narsa odamlarning shaxsiy ustanovka va dispozitsiyalaridagi sezgirligini oshiradi.
- O'zgaruvchanlik. Individdning butun hayoti davomida shaxs beto'xtov o'zgarishga uchrab boradi deb tasdiqlash.
- O'ziga bino qo'yish fenomeni. Aniqlikdan ko'ra ko'proq ishonish tendentsiyasi, yahni o'z ehtiyoqlarining to'g'riligiga ortiqcha baho berish.
- O'zini oshkor qilish. Boshqa odam oldida yashirin kechinma va hissiyotlarini oshkor qilish, yorilish.
- O'z-o'zini taqdim qilish. O'z-o'zini namoyon qilish akti va kimningdir ideallariga mos tushadigan taasurot yoki yoqimli taasurot uyg'otish uchun yo'naltirilgan xulq.
- Himoya mexanizmlari. Individuumni xavotir va aybdorlik hissi kabi noxush emotsiyalardan himoya qiluvchi anglanmagan reaksiyalar. Odamga xavf soluvchi impulslarni berkituvchi yoki buzib ko'rsatuvchi ego-himoya tendentsiyasi.
- Qarshilik ko'rsatish. Siqib chiqarilgan materialning ochilishiga terapiya paytida qarshilik ko'rsatish tendentsiyasi; shuningdek psixoterapiyani muddatidan oldin to'xtatish yo'li bilan himoya xulqi modelini saqlash tendentsiyasi.
- Qiyosiy deprivatsiya. O'zining ahvolini boshqalarga nisbatan yomon deb idrok qilish.

- Egoizm. (Ehtimol har qanday xulqning tagida yotadigan) shaxsiy farovonlikni yaxshilash motivatsiyasi. Boshqalarning farovonligini yaxshilashni maqsad qilib qo'yadigan alhturizmga teskari.
- Edip yoki Elektra kompleksi-faollik bosqichida paydo bo'ladigan, bolaning qarama-qarshi jinsdagi ota yoki onasi bilan jinsiy qo'shilishga intilish, o'zi bilan bir jinsdagi ota yoki onasi tomonidan tahdidni his qilishi va vaqti kelib ziddiyatni o'zini o'zi bilan bir jinsdagi ota yoki onasi bilan identifikatsiya qilish orqali bartaraf qilishdan iborat jarayon. Bola qarama-qarshi jinsdagi ota yoki onasiga nisbatan erotik hissiyotni, o'zi bilan bir jinsdagi ota yoki onasiga nisbatan esa nafrat va rashkni boshdan kechiradi.
- Empatiya. Boshqa odamning his-tuyg'ularini jo'shqin ichdan kechirish, o'zini uning o'rniga qo'yishga harakat qilish.
- Entropiya-har qanday energetik tizim muvozanat holatiga intiladi deb tasdiqlovchi termodinamika qonuni. Psixoanaliz nazariyasida entropiya har qanday tirik mavjudotga o'zlari paydo bo'lgan jonsiz holatga qaytishga intilish hos degan mahnoni anglatadi.
- Epigenetik tamoyil. Odam o'z taraqqiyotida albatta butun insoniyat uchun umumiy bo'lgan qathiy ketma-ketlik bosqichlaridan o'tadi deb tahmin qilish. Har bir bosqich biologik etilish va ayni bosqich tomonidan odam oldiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar bilan birga keladigan inqirozda namoyon bo'ladi.
- Etnotsentrizm. O'z etnik guruhi va madaniyatining ustunligiga ishonch va mos ravishda boshqa guruhlarini nazar pisand qilmaslik.
- Ehtimol MYeN. Kelajakda biz orzu qiladigan yoki shunday bo'lishdan qo'rqadigan obrazlar.
- Yaqinlik. Geografik qo'shnilik. Yaqinlik (yana ham aniqrog'i «funktional masofa») bog'liqlik hissining uyg'onishini taqozo qiladi.

MUNDARIJA.

1. Kirish.....
2. Sharq mutafakkirlarining bola tarbiyasi
3. haqidagi qarashlari.....
4. Rolli o'yinlarning ayrim xususiyatlari.....
5. Didaktik o'yinlar mazmuni.....
6. Harakatli o'yinlar.....
7. Xalq o'yinlari.....
8. Ijtimoiy-psixologik treninglar.....
9. Foydalanilgan adabiyotlar.....

10.Tushunchalarning izohli lug‘ati.....

BOLALARNI MAHNAVIY - AXLOQIY TARBIYALASH UCHUN O'YINLAR

O'quv metodik qo'llanma

Kompg'yuter maketi:

G.M. Qodirova.

Terishga berildi: 31.03.2006. bosishga ruxsat etildi 2.04.06.

Bichimi 60x84 (1/16). 2 bosma taboq.

Buyurtma №280. adadi 80 nusxa

Farg'ona Davlat universiteti bosmaxonasi, Farg'ona shahri,

B.Usmonxo'jaov ko'chasi - 19.